

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

UDK

KILICHEVA MULOYIM TO'XTABOYEVNA

“O'ZBEK TILI FONETIKASINI O'RGATISHNING
ZAMONAVIY USULLARI (QORAQALPOG'ISTONDAGI
TURKMAN MAKTABLARI MISOLIDA)”

5111200 – o'zbek til va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: f. f. n., dots. G. Qurboniyazov

Nukus – 2019

Magistrlik dissertatsiya ishi O'zbek tili kafedrası yig'ilishining 2019-yil

«__» _____dagi ____-sonli bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilinadi.

Magistratura bo'limi dekani:

M. Allamberganova

Kafedra mudiri:

Sh. Yuldasheva

Ilmiy rahbar:

f.f.n.,dots. G. Qurbaniyazov

Kilicheva Muloyim To'xtaboyevnaning O'zbek tili fonetikasini o'rgatishning zamonaviy usullari (Qoraqalpog'istondagi turkman maktablari misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «__» ball («__%») qo'yildi.

«__» _____ 2019-yil

DAK kotibi:

Kirish	4 – 9
Birinchi bob. O'zbek va turkman tillari fonetikasining qiyosi.	10 – 20
1.1. O'zbek va turkman tillaridagi nutq tovushlarining o'xshashliklari va o'ziga xosliklari.	10 – 16
1.2. O'zbek va turkman tillarida bo'g'in va urg'u. Bu ikki tildagi fonetik o'zgarishlarning qiyosi.	17 – 20
Ikkinchi bob. O'zbek tili fonetikasi va maktab amaliyoti.	21 – 42
2.1. Boshlang'ich sinf o'zbek tili darslarida fonetika nazariyasi va amaliy mashqlarning ahamiyati.	21 – 34
2.2. Yuqori sinf o'quvchilariga fonetikani o'qitish zarurati.	35 – 42
Uchinchi bob. O'quvchilarda fonetika bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish usullari.	43 – 55
3.1. Fonetika nazariyasini o'rgatishning zamonaviy usullari.	43 – 52
3.2. Fonetikaga doir amaliy mashqlar va topshiriqlarni o'rgatish usullari.	53 – 55
Xulosa.	56 – 58
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	59 – 60
Ilovalar.	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda istiqloqlarning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yosh avlodning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir: "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala – bu farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir"¹.

Mustaqil davlatimizda o'zbek tilining ijtimoiy mavqei tobora ortib borayotgan bugungi kunda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish o'quvchilarning davlat tilida erkin fikrlashi, o'z fikrlarini yozma va og'zaki ravishda to'g'ri ifodalash ko'nikmalarini egallashi, o'zbek xalqining milliy, madaniy qadriyatlari, muomala madaniyati hamda boy adabiy-badiiy merosi bilan tanishishning ko'zda tutilishi masalaning davlat ahamiyatiga ega ekanini anglatadi.

Shuni eslatib o'tish o'rinliki, ta'lim qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman tilida olib boriladigan maktablarning davlat tili ta'limida turkiy tillarning qardoshligi hisobga olingan dastur va darsliklardan emas, balki rus tilida ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun yaratilgan o'quv dasturlari va darsliklaridan

¹Sh. M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: - O'zbekiston, 2017. 103-b

foydalanilib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda bu tillarida olib boriladigan maktab o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalar yaratish ishlari nazardan chetda qolib ketmoqda. Bularni inobatga olgan holda, davlat tili o'qituvchisi o'z zimmasiga yuklatilgan katta mas'uliyatni his qilishi va uni oqilona bajarishga intilishi lozim. Bu mas'uliyatning mohiyati shundan iboratki, u nafaqat o'zbek (davlat) tilini bilishi, balki ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktab o'quvchilarining ona tillaridan ham yaxshigina xabardor bo'lishi kerak.

Tadqiqotlardan ma'lumki, gapirish umumiy nutq hajmining 30 foizini, yozuv esa 9 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun til ta'limida gapirishni o'rgatish muhimdir. O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, to'g'ri talaffuz ko'nikma va malakalarini rivojlantirish har doim metodikaning diqqat markazida bo'lib kelgan. O'quvchilar og'zaki nutqining rivojlanishida tilshunoslikning fonetika bo'limi yuzasidan olingan nazariy va amaliy bilimlarning ahamiyati juda katta. Bu borada tilshunos S. Otamirzayev hamda M. Yusupovalar quyidagicha fikr bildirishgan: "So'zlar, iboralar, gaplar – umuman, **nutq** tovushalar vositasi bilan shakllanadi, zero tovush tilning moddiy qobig'idir"⁸. Masalaning mana shu jihatlarini teran anglagan holda o'quvchilarga o'zbek tili fonetikasini o'qitish zarurati qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi hamda uni o'qitishning jahon andozalariga mos zamonaviy ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish asosida darsni tashkil qilish tanlangan mavzu **dolzarb** ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Nutq tovushlarining hosil bo'lish mexanizmini o'rganish XVII asrda boshlangan bo'lib, bu hol kar-soqovlarni

⁶O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi Qonun. – 1989.

⁸S. Otamirzayeva, M. Yusupova. O'zbek tili (Fonetika, grafika, orfoepiya va orfografiya). Toshkent. – 2004

o'qitish ehtiyojidan kelib chiqqan. Ispaniyalik X.B.P. Bonet, angliyalik J Uilkins, niderlandiyalik I.Amman asarlari. Rossiyada umumiy fonetikaning rivojiga I.A. Boduen de Kurtene va uning shogirdlari V.A.Bogoroditskiy va L.V. Scherbalar o'z asarlari bilan muhim hissa qo'shdilar.

O'zbek tili fonetikasi ham vhuqur o'rganilmoqda. O'zbek tilining tasfiriyl fonetikasini tadqiq qilishda V.V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Abdullayev, G. Abdyrahmonov, A. Rustamov, Q. Mahmudov, H. Ne'matov E. Umarovlarning xizmati katta.

O'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish masalasi bo'yicha A.G'ulomov¹, B.SH.Qobilovalar tomonidan o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma yaratilgan.

Metodika ilmida fonetikani o'qitish yo'riqlari ishlab chiqilmagani bois ona tili muallimlari, asosan, darslikdagi ma'lumotlarni qayd etish, ularni yodlatish bilan kifoyalanadilar².

Demak, ona tili ta'limi bilan bir qatorda o'zbek tili ta'limida ham fonetikani o'qitish bo'yicha metodik qo'llanmalarga, ilmiy-metodik ishlar va tavsiyalarga ehtiyoj juda katta.

Magistrlik dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: Tadqiqot O'zbek tili kafedrasining "O'zbek tilshunosligi va o'zbek tilini o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilmoqda.

Ishning maqsadi: o'quvchilarning dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida og'zaki nutq ko'nikma va malakalarini rivojlantirish usullarini aniqlash,

¹G'ulomov A.Q., Qobilova B.Sh. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1995

Qodirov V. Fonetikani o'qitish yuzasidan tavsiyalar. Til va adabiyoti ta'limi. Toshkent. 2018, № 10. 14 – 16-b.

pedagogika, psixologiya fanlari yutuqlariga tayangan holda o'zbek tili fonetikasini o'rgatishning o'ziga xos tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

– fonetik bilim va uning amaliy ahamiyatini izchil tizimda o'rganish;

– o’quvchilarga o’zbek tili fonetikasiga doir bilimlarni o’z ona(turkman) tili bilan qiyoslab o’rgatish usullarni aniqlash;

– tovush va harf tushunchalarini bir-biridan farqlashga o’rgatish usullarini aniqlash;

– o’quvchilarga unli hamda undosh tovushlarga doir nazariy va amaliy bilimlarni o’qitishdagi o’ziga xoslikni o’rganish.

– o’quvchilarga bo’gin, urg’u va fonetik hodisalarni tushuntirish;

– o’quvchilarning o’gzaki nutqidagi asosiy kamchiliklar va ularni bartaraf qilish yo’llarini aniqlash;

– o’quvchilarda tog’ri talaffuz ko’nikma va malakalarini takomillashtirish usullarini o’rganish va h.k.

Tadqiqotning obyekti: ta’lim turkman tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarining 2 – 4, 5 – 11-sinflarida o’zbek tilini o’qitish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti: o’zbek tilini o’qitish mazmuni, usullari va o’zbek tili darsliklari

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari: O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “2004-2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”, “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o’quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi”, O’zbek tilidan Davlat ta’lim standarti, O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Ikkinchi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning farmonlari, nutq va ma’ruzalaridagi ta’limni rivojlantirishga oid fikrlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik falsafiy-ijtimoiy ta’limotlar ishning metodologik asosini tashkil qiladi.

Tadqiqot metodlari. tadqiqot jarayonida ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasiga doir ilmiy-metodik adabiyotlarni o’rganish va tahlil qilish, o’zbek tili darslarini kuzatish, bu borada to’plangan tajribalarni umumlashtirish, o’zbek tilini o’qitishda pedagogik texnologiyalarni qo’llash, tajriba-sinov ishlarining natijalarini miqdor va sifat jihatidan qiyosiy o’rganish, umumlashtirish kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalaniladi. Tajriba-sinov ishlari Qoraqalpog’iston Respublikasi

To'rtko'l tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 24-, 13-sonli maktablarda amalga oshirildi.

Ishning ilmiy yangiligi: Magistrlik dissertatsiya ishda o'rta umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'zbek tili fonetikasini o'rgatish borasida bir qator samarali usullar tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Ishning amaliy ahamiyati shundaki, o'quvchilarning og'zaki nutq malakalari darajasining mavjud ahvoli va uni aniqlash mezonlari berildi, fonetika bo'yicha ko'nikma va malakalarini takomillashtirish usullari keltirildi, fonetik mashqlar va ularning turlariga doir kuzatishlar, tavsiylar o'rin oldi. Magistrlik dissertatsiya ishda yozilgan nazariy ma'lumotlarni o'rta umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi: Tadqiqot natijalari Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida o'tkazilgan professor-o'qituvchilar va talabalarning an'anaviy ilmiy-metodik anjumanlarida muallif tomonidan o'qilgan ma'ruzalarda, e'lon qilingan ilmiy-metodik maqolalarda o'z ifodasini topgan.

Ishni yakunlashda bitiruvchining Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 24-, 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'zbek tili o'qituvchilari va o'quvchilar faoliyati boyicha ilmiy-metodik kuzatishlari, tajriba-sinovlari muhim manba vazifasini o'tadi.

Ishning tuzilishi va hajmi: Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. O'ZBEK VA TURKMAN TILLARI FONETIKASINING QIYOSI

1.1. O'zbek va turkman tillaridagi nutq tovushlarining o'xshashliklari va o'ziga xosliklari

Dunyodagi tillar kelib chiqishi, qarindoshligi, lug'aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo'linadi. Yer yuzida 20 dan ortiq til oilasi bor. Turkiy tillar oilasiga o'zbek, qozoq, qirg'iz, turk, turkman va boshqa jami 30 ga yaqin til kiradi. Bu tillar o'zaro qardosh tillar hisoblanadi. Shuning uchun bu tillarning ichki tuzilishi bir-biriga o'xshash, shu bilan bir qatorda muayyan farqlarga ham ega. Bu o'ziga xoslik va tafovutlarni o'zbek va turkman tillari fonetikasi misolida ko'rib chiqamiz.

Fonetika – tilshunoslikning nutq tovushlarini o'rganuvchi bo'limidir. Fikrimizni boshqalarga tovushlar vositasida so'zlash va harflar vositasida yozish orqali bayon qilamiz. So'zlash va yozish orqali ma'lum fikr bayon qilishimiz nutq hisoblanadi.

Nutq ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq – og'zaki nutq, harflar ketma-ketligi asosida bayon qilingan nutq – yozma nutq sanaladi⁵.

Tovush – nutqning fonetik jihatidan bo'linmaydigan eng kichik birligi. **Harf** – nutq tovushlarining yozuvdagi shartli belgisi. Alifbo esa harflarning qat'iy bir tartibda joylashgan yig'indisidir.

Bilamizki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alfbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Unga ko'ra, yangi alifboda 31 harfva 1 tutuq belgisi joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda bu qonunga ayrim o'zgartirishlar kiritish haqida qaror qabul qildi. Bunga binoan 31 harf 26 harf va 3 ta harfiy birikmasiga o'zgartirildi. Shundan 6 tasi unli, 24 tasi undosh tovush hisoblanadi. 1993-yilda qabul qilingan lotin alifbosiga asoslangan turkman yozuvida 30 ta harf mavjud. Turkman tilida harf va tovushlar soni teng. Bu tilda 9 ta unli, 21 ta undosh tovush bor. O'zbek tilidagi tutuq belgisi (') turkman tilida yo'q. Turkman tilida unli tovushlar (*çekimli sesler*), undosh tovushlar

(çekimsiz sesler) deb ataladi.

Endi ikki tildagi unli va undosh tovushlarini qiyoslaymiz:

O‘zbek tilidagi unli tovushlar: **a, o, o‘ u, i, e;**

Turkman tilidagi unli tovushlar: **a, ä, o, ö, u, ü, y, i, e.**

O‘zbek tilidagi undosh tovushlar: **b, d, f, g, h, j (vijdon), j (jo‘ja), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng;**

Turkman tilidagi udosh tovushlar: **b, w, g, d, z, j, z, ý, k, l, m, n, ñ, p, r, s, t, f, h, ç, ş.**

O‘zbek va turkman alifbosidagi o‘xshashlik va tafovutlarni ularning qaysi tovushni ifodalashini quyidagi jadval asosida ko‘rib chiqamiz.

Ikkala alifboda harflarning tovush ifodalashi	O‘zbek alifbosi	Turkman alifbosi
Bir xil ko‘rinishda bo‘lib, bir xil tovushni ifodalovchi harflar	Ee (elak) Ii (kitob – til oldi) Uu (umid) Bb (bilim) Dd (dehqon) Mn (maktab) Nn (non) Tt (tarbiya) Gg (gul) Jj (jo‘ja) Ll (Lola) Kk (ko‘ylak) Pp (paxta) Rr (ruchka) Ss (Samrqand) Zz (zamin)	Ee (elek) Ii (kitap – til oldi) Uu (umyt) Bb (bilim) Dd (daýhan) Mm (mektep) Nn (nan) Tt (terbiýe) Gg (gül) Jj (jüýje) Ll (Läle) Kk (köýnek) Pp (pagta) Rr (ruçka) Ss (Samarkant) Zz (zemin)

	Hh (bahor) Ff (faxr)	Hh (bahar) Ff (fizika)
Turlicha ko‘rinishda bo‘lib, bir xil tovushni ifodalovchi harflar	Aa (ahil) O‘o‘ (o‘rdak) Ii (ilm – til oldi; iqbol – til orqa) Vv (vaqt) Jj (jurnal) Sh sh (shirin) Ch ch (choynak) Ng ng (ko‘ngil)	Ää (älem – ingichka talaffuz qilinadi) Öö (ördek – nisbatan ingichka talaffuz qilinadi) Yy (ylym – til oldi Ykbal – til orqa) Ww (wagt) Zz (zurnal) Şş (şirin) Çç (çäýnek) Ńň (köñül)
Bir xil ko‘rinishda bo‘lib, turli tovushni ifodalovchi harf	Aa (aqlli) Oo (olma) Yy (yaproq)	Aa (adam) Oo (Oraz) Yy (ynsan)
Alifbolarning birida bo‘lmagan harflar	Qq (qalam) G‘g‘ (bog‘) Xx (baxt) - - -	- - - Üü (üzüm) Zz (zirafa) Yy (ynam)

O'zbek tilida unli tovushlar tilning gorizontaal harakatiga ko'ra **old qator** va **orqa qator** unlilariga bo'linadi. Bular quyidagilar:

1. Old qator unlilar: **a, i, e.**
2. Orqa qator unlilar: **u, o o'.**

Tilning vertikal harakatiga ko'ra quyidagi uch turga ajratiladi:

1. Yuqori tor unlilar: **i, u.**
2. O'rta kengunlilar: **e, o.**
3. Quyi kengunlilar: **a, o.**

Talaffuz jarayonida lablarning ishtirok qilish yoki qilmasligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Lablangan unlilar: **o, o', u.**
2. Lablanmagan unlilar: **a, e, i.**

Turkman tilidagi unlilar talaffuzi jihatdan uzun (*uzyn*) va qisqa (*gysga*) aytiladi. Bu so'z ma'nolarini farqlashga yordam beradi. Masalan: at – ism ma'nosida (*cho'zib* aytiladi), at – uy hayvoni ma'nosida (*qisqa* aytiladi).

Bu tildagi unlilar talaffuz jarayonida tilning old va orqaga tomon harakat qilishi jihatidan ingichka (*inçe*), va yo'g'on (*yogyn*) deb bo'linadi. Bular quyidagilar:

1. Ingichka (*inçe*) unlilar: **ä, e, i, ü, ö.**
2. Yo'g'on (*yogyn*) unlilar: **a, o, y, ö.**

Tilning tanglay tomon harakat qilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Keng (*giñ*) unlilar: **a, ä, e, o, ö.**
2. Dar (*tor*) unlilar: **u, ü, y, i.**

Talaffuz jarayonida lablarning ishtirok etish yoki etmasligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Lablangan (*dodaklanýan*) unlilar: **o, ö, u, ü.**
2. Lablanmagan (*dodaklanmayán*) unlilar: **a, ä, e, i, y.**

Bu ikki tildagi unli tovushlarning ifodalanishini quyidagi gaplar misolida ko'rib chiqamiz: Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan – Hormat etseñ, hormat görersiñ. Kishining hurmati o'z qo'lida – Kişining hormaty öz elinde. Ko'z

qayerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerda bo'ladi – Göz nirede bolsa, mähir hem şol yerde bolýar.

O'zbek tilidagi undosh tovushlar hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab, til, bo'g'iz undosh tovushlariga bo'linadi. Bular quyidagilar:

I. Lab undoshlari: b, p, m, v, f. Ular ikkiga bo'linadi: lab-lab undoshlari – m, b, p; lab-tish undoshlari – v, f.

II. Til undoshlari: t, d, s, z, ch, j, dj, sh, l, r, n, y, g, k, ng, q, g', x. Til qismalrining harakatiga ko'ra til tovushlari to'rtga bo'linadi:

1. Til oldi undoshlari: t, d, s, z, ch, j, dj, sh, l, r, n.

2. Til o'rta undoshi: y

3. Sayoz til orqa undoshlari: g, k, ng.

4. Chuqur til orqa undoshlari: q, g', x.

III. Bo'g'iz undoshi: h.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi, sirg'aluvchi, va portlab-sirg'aluvchi degan turlarga ajratiladi:

1. Portlovchi undoshlar: b, p, d, t, g, k, q, j, ch.

2. Sirg'aluvchi undoshlar: v, f, z, s, j, sh, y, g', x, h.

3. Portlab-sirg'aluvchi undoshlar: m, n, ng, l, r.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra esa quyidagi ikki turga bo'linadi:

1. Jarangli undoshlar: b, d, v, g, g', z, ,dj, j, y, m, n, ng, l, r.

2. Jarangsiz undoshlar: p, t, f, k, q, s, ch, sh, x, h.

Turkman tilidagi undosh tovushlar hosil bo'lish o'rniga ko'ra quyidagi ikki turga ajratiladi:

Til undoshlari (dil çekimsizleri): t, d, ç, j, s, z, ş, z, r, l, n, ý, k, g, ñ, h.

Lab undoshlari (dodak çekimsizleri): b, p, w, f, m.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra ham ikki turga bo'linadi. Bular quyidagilar:

Portlovchi undoshlar (degşikli zarply çekimsizler): g, k, b, p, d, t, j, ç, l, m, n.

Sirg'aluvchi undoshlar (yşgalaňly – süýkeş çekimsizler): f, w, h, ş, s, z, z.

Turkman tilidagi undosh tovushlar ovoz (*owaz*) va shovqinning (*galmagal*) ishtirokiga ko'ra quyidagi ikki turga ajratiladi:

1. Jarangli undoshlar (ačyk çekimsizler) : b, d, g, j, ž, l, m, n, ŋ, r, w, ý, z.

2. Jarangsiz undoshlar (dymyk çekimsizler) : ç, f, h, k, p, s, ş, t.

O'zbek va turkman tillari nutq tovushlarini bir-biriga qiyoslar ekanmiz, yuqoridagi nazariy ma'lumotlar va jadvaldan ham ma'lumki, bu ikki tildagi unli va undosh tovushlarning o'xshash jihatlari bilan bir qatorda muayyan farqlar ham mavjud. Farqli jihatlarga to'xtaladigan bo'lsak, nutq tovushlarining faqat tashqi ko'rinishi (harf) emas, balki ularning garchi bir tovushni bildirsa-da, ifodalanishi va talaffuzi jihatidan tafovutlari mavjud. Shuningdek, turkman tilida unliharflar soni ko'p. Til tarixidan bilamizki, qadimgi turkiy tilda 9 ta unli tovush bo'lgan. Demak, bu turkman tilida saqlanib qolgan. Turkman tilidagi **u, ü** unliharflarining o'rniga o'zbek tilida **u** unlisi ishlatiladi. Masalan, umid – umyt, gul – gül, yurak – ýürek va sh.k. O'zbek tilidagi **i unlisi** turkman tilidagi **i** va yo'g'on talaffuz qilinuvchi **y** tovushining o'rnida qo'llaniladi. Masalan, ish – iş, bir – bir, kitob – kitob, bilim – bilim; ilm – ylym, inson – ynsan, ilhom – ylham, ochiq – ačyk.

Undosh tovushlarni taqqoslaydigan bo'lsak, turkman tilida o'zbek tilidagi kabi chuqur til orqqa **q, g', x** tovushlari yo'q. Q tovushining o'rniga **k, g**; g' tovushining o'rniga **g**; x tovushining o'rniga esa **h, g** tovushlari ifodalanadi. Buni quyidagi misollar asosida ko'rib chiqamiz:

Q tovushining turkman tilida ifodalanishiga misollar: qalam – galam, qora – gara, qo'shimcha – goşulma, tuproq – toprak, kattaroq – ulurak, uzoq-yaqin – uzak-ýakyn.

G' tovushining turkman tilida ifodalanishiga misollar: bog' – bag, tog' – dag, sog' – sag, g'oz – gaz, o'giz – agyz, o'g'il – ogul.

X tovushining turkman tilida ifodalanishiga misollar: baxt – bagt, taxt – tagt, paxta – pagta, puxta – pugta, daraxt – daragt, xabar – habar, xalq – halk, xizmat - hyzmat, tarix – taryh, xotira – hatyra.

Shuni aytib o'tish o'rinliki, turkman tilida garchi g' tovushining o'rniga g tovushi ifodalansa ham, talaffuz jarayonida g tovushi g' tovushiga moyil aytiladi. Buni yuqorida keltirilgan misollar orqali ham bilib olishimiz mumkin. O'zbek tilida j (jo'ja), dj (jurnal) tovushlar bir harf orqali ifodalanadi. Turkman tilida esa

bu ikki tovush uchun alohida harflar mavjud. Masalan, jahan, jüýje; zurnal, zirafa, azdar.

Ko'rinadiki, bu ikki tildagi nutq tovushlarini o'rganishda ularning integral belgilari, birinchidan, o'zlashtirishni osonlashtirsa, ikkinchidan, ularning differensial belgilarini ham o'rganishni taqozo qiladi. Chunki qiyoslashda masalaning o'xshash jihatlari bilan farqli tomonlariga ham birdek e'tibor qaratiladi.

1.2. O'zbek va turkman tillarida bo'g'in va urg'u. Bu ikki tildagi fonetik o'zgarishlarning qiyosi

Taqqoslash — bilishning asosidir. Tildagi ko'pgina hodisalarni faqat taqqoslash yo'li bilangina bilib olish mumkin. U, ayniqsa, til hodisalari orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni bilib olish imkonini beradi. Tilda jarangli va jarangsiz undoshlar, tovush va harf, o'zak va negiz, ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar, sodda yig'iq va sodda yoyiq gap, ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplar kabi qator mavzular borki, ular taqqoslashga asoslangan ijodiy amaliy topshiriqlar orqali o'quvchining shaxsiy faoliyat mahsuliga aylanadi. Shuningdek, bir til nazariyasini boshqa bir tilga qiyoslash ham shu til hodisalarini bilib olishga imkon beradi, qolaversa, o'rganish va o'zlashtirishni osonlashtirishi tabiiy.

Yuqorida o'zbek va turkman tillarining nutq tovushlari o'zaro qiyoslandi. Ularning o'xshash va farqli tomonlari ko'rib chiqildi. Endi bu ikki tildagi bo'g'in, urg'u kabi fonetik birliklar va fonetik o'zgarishlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar birikmasiga bo'g'in deyiladi⁷.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mo'ljallangan ona tili darsliklarida bo'g'inning ikki turi ajratiladi: ochiq va yopiq bo'g'in. Turkman maktablari uchun mo'ljallangan ene dili darsliklarida bo'ginga quyidagicha ta'rif berilgan:

Sözün bir bada áydylýan bölegine bogun diýilýär. Meselem: og-lan, ki-tap⁸.

E'tibor bersak, har ikkala tildagi bo'g'inga berilgan ta'rifning mazmun-mohiyati, uning ochiq (a'çyk) ýa yopiq (ýapyk) deb bo'linishi va bu bo'g'in

⁷ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: 2015. 159-b.

turlarining ifodalanish xususiyatlari ayni bir xil.

Turkman maktablari uchun mo'ljallangan ene dili darsliklarida bog'inning turlariga quyidagicha nazariy qoida berilgan:

Soʻny çekimli ses bilen gutaran bogna açyk bogun diʻilȳär. Meselem: a-ta, e-ne, ka-ka, me-le we. ş.m.

Soʻny çekimsiz ses bilen gutaran bogna ȳapȳk bogun diʻilȳär. Meselem: almak, gör-mek , dört we ş.m⁹.

Demak, har ikkala tildagi boʻginning ifodalanish xususiyatlarida farqlar yoʻq, hattoki ularning ilmiy termin sifatida nomlanishi ham birdek. Bu bir xillik va tafovutlarni urgʻu mavzusi misolida koʻrib chiqamiz.

Soʻz boʻginlaridan yoki gapda ishtirok etayotgan soʻzlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuzqilinishiga urgʻu deyiladi. Masalan: dala, dalalar, kitob.

Urgʻu ikki xil boʻladi: 1. Soʻz urgʻusi. 2. Gap urgʻusi⁷.

Sözleriň belli bir bogunynyň beȳleki bogunlardan batlyrak aȳdȳlmagyna basym diʻilȳär. Meselem: daȳhan, daȳhanlar, okuw, okuwçȳ⁹.

Oʻzbek tilidagi kabi turkman tilida ham urʻgʻu, asosan, soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi. Qoʻshimcha qoʻshilishi natijasida boʻgʻin ham oʻsha boʻginga oʻtib boradi. Turkman tilida ham urʻgu soʻz boʻginlaridan biriga yoki gap tarkibidagi soʻzlarning biriga tushadi. Shunga qarab urʻgʻu turlari farqlanadi.

⁹Ene dili: Umumy orta bilim berȳän mekteplerininȳ 1-synpy uȳin derslik. Abdullaȳewa G., Welbegow G., Halliȳew G. – “Özbekistan”, Daşkent – 2017.

⁷Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Joʻraboyeva Z. Ona tili. Umumtaʻlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: 2015. 161-b.

O'zbek va turkman tilidagi urg'u olmaydigan qo'shimchalarni qiyoslab ko'rsak, deyarli farq yo'q. Ikki tilda ham deyarli bir xil qo'shimchalar o'ziga urg'u olmaydi. Masalan: yozma – ýazma, senmi – senmi va sh.k.

Quyida urg'uning o'zni o'zgarishi bilan so'z ma'nolari o'zgaradigan so'zlarga misollar keltiramiz. Bunday so'zlar ikkala tilda ham bor. Misollar: olma (ot), alma (at); bog'lar (ot), baglar (at). Olma (fe'l), alma (işlik); bog'lar (fe'l), baglar (işlik) va h.k.

O'zbek tilidagi kabi turkman tilida ham gap urg'usi mavjud. Bu urg'u gap ichidagi ta'kidlab aytilayotgan istalgan so'zga tushadi: **Biz** (**boshqalar** emas) ertaga kutubxonaga boramiz. Biz **ertaga** (**bugun** emas) kutubxonaga boramiz. Biz ertaga **kutubxonaga** (**bozorga** emas) boramiz. Biz ertaga kutubxonaga **boramiz** (**bormaymiz** emas).

Men şu gün kitaphana gitjek. Men **şu gün** kitaphana gitjek. Men şu gün **kitaphana** gitjek²⁰.

Demak, bu ikki tildagi bo'gin (bogun) va urg'u (basym) fonetik birliklarining mazmun-mohiyatida deyarli farq yo'q. Buni yuqorida ko'rib chiqdik. Shu bilan bir qatorda, quyida fonetik o'zgarishlarni ham qiyoslab ko'ramiz.

Nutq tovushlari talaffuz paytida ba'zi o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'zgarishlar talaffuz qulayligiga erishish zaruriyati tufayli yuz beradi. Bular asosan uch xil bo'ladi:

Tovush almasishi: son – sana, ong – angla, sayla – saylov, o'qi – oquv, yutuq – yutug'i, kurak – kuragi, qishloq – qishloqqa, bilak – bilakka.

Tovush tushishi: shahar – shahri, qorin – qorni, burun – burni, ocha oladi – ocholdi, men – mening, sen – seni, past – pasay.

²⁰R. Klyçew, M. Berdiyew. Türkmen dili 11-nji synp üçin derslik. Daşkent – 2018.

Tovush orttirilishi: shu – shunga, bu – bunda, u – undan, o'sha – o'shanday, achi – achchiq, isi – issiq.

Quyida turkman tilidagi tovush almashishi va tovush tushishiga misollar keltiramiz: ýürek – ýüregi, bilek – bilegi, jogap – jogabym, edep – edebiňiz, kitap – kitabymyz, göle – göläniň, depe – depäni, maksat – maksady, gant – gandy, sagat – sagadymyz; köňül – köňli, göwün – göwni, burun – burny, agyz – agzyň, ylym- ylmyňyz, bagyr – bagrym, çebiş – çebşi.

Bulardan tashqari, tovush o'zgarishlarining bir nechta turlari mavjud.

Quyida ikki tildagi fonetik o'zgarishlarni qiyoslab ko'ramiz:

Singarmonizm – unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg'unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi. Bunga ko'ra so'zlarning oldingi bo'g'inida qanday unli kelsa, keyini bo'g'inida ham shunday unli kelishi kerak: burun, quruq, uzun; üzüm, burun, uçgun.

Assimilyatsiya – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib o'ziga moslashtirishidir: aytdi – aytti, ketdi – ketti, yigitcha – yigichcha, tuzsiz – tussiz, so'zsiz – so'ssiz; ýyldyz – ýyllyz, endik – ennik, baldak – ballak, saldam – sallam, hasta – hassa, usta – ussa, aňgal – aňňal, basdyrma – bassyrma, gyzdyrma – gyzzyrma¹.

Dissimilyatsiya – ikkita o'xshash tovushning noo'xshash bo'lib qolishidir: birorta – bironta, zarur – zaril, ittifoq – intifoq, koridor – kolidor.

Metateza – undosh tovushlarning o'rin almashuvidir: tuproq – turpoq, aylanmoq – aynalmoq, yomg'ir – yog'mir, ahvol – avhol, o'rganmoq – o'granmoq; toprak – torpak, ýaprak – ýarpak,

²Nazarowa G., ArazklyçewaH. Türkmen dili: 10-synpy üçin derslik. – Çolpan adyndaky neşirýat, Daşkent – 2017. 54-55-b.

Tovush orttirilishi – bu hodisa soʻz boshida, soʻz oʻrtasida va soʻz oxirida yuz berishi mumkin: stakan – istakan, stol – ustol, fikr – fikir, doir – doyr, tank – tanka, disk – diska; stol – ustol, toprak – topurak, ýaprak – ýapyrak, deprek – depirek, köpri – köpüri, pytramak – pytyramak.

Tovush moyillashuvi – talaffuz jarayonida ikkita jarangsiz tovushdan biri ikkinchisini oʻziga toʻliq emas, qisman oʻxshatib oladi: maqtov – maxtov, toʻqson – toʻxson, taqsim – taxsim, maqsad – maxsad;

Xulosa qilib aytganda, tillar bir-biriing negizida paydo boʻlgan. Jumladan, qardosh tillarining kelib chiqish xususiyatlari bir-biri bilan bogʻliq va yaqin. Lekin bu tillarning barchasi bir nazariy bilimlar, qonun-qoidalar asosida vujudga keldi, shakllandi , rivojlandi degan xulosani keltirib chiqarmaydi. Negagki bularning integral belgilari bilan bir qatorda oʻziga xos boʻlgan differensial jihatlarini ham inobatga olish zarurligini unutmaslik lozim.

II BOB. O'ZBEK TILI FONETIKASI VA MAKTAB AMALIYOTI

2.1. Boshlang'ich sinf o'zbek tili darslarida fonetika nazariyasi va amaliy mashqlarining ahamiyati

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim va murakkab bo'g'ni hisoblanadi. Bolalar bu bosqichda elementar o'qish va yozish, hisoblash, tabiat bilan yaqindan tanishish, o'zligini anglash kabi ijtimoiy hayot uchun muhim bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallashga muvaffaq bo'ladilar. Boshlang'ich sinf ona tili yoki o'zbek (davlat) tili darslarining bosh vazifasi o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda til hodisalarini puxta o'zlashtirish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini bilishning ahamiyati katta⁹.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning o'gzaki va yozma nutqni egallashlarida grafika va fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta. Buni quyidagicha e'tirof qilishimiz mumkin:

– grafik va fonetik bilimga asoslangan holda 1-sinf o'quvchilari savod o'rganish davrida o'qishni va yozishni bilib oladilar;

– fonetik bilim so'zni to'g'ri talaffuz qilish (tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'inlarga ajratish, urg'uli bo'g'inni aniqlash, orfoepik me'yorga rioya qilish) asosini tashkil qiladi;

– fonetik bilim morfologik va so'z yasashga oid bilimlar bilan birga o'quvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin bo'ladi;

– fonetik bilim gapni ohangiga ko'ra to'g'ri aytish, logik urg'u va gap qurilishidagi to'xtamlarga rioya qilish uchun zarur;

⁹SH. Yo'ldosheva, U. Masharipova, D. Xudoyberdieva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini lisoniy tahlilga o'rgatish (metodik qo'llanma) Toshkent – 2012

– so'zning tovush tomonini bilish uning ma'nosini tushunish va nutqda ongli qo'llash uchun muhim sanaladi va sh. k.

O'qituvchi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha mavzularga oid darslarda o'quvchilarning so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilishlari ustida doimiy ishlab boradi. O'quvchilarga fonetikaga oid bilimlar berishda, ko'nikma va

malakalar hosil qilishda boshqa ish turlari bilan bir qatorda soʻzni tovush tomondan tahlil qilishdan ham foydalaniladi.

Bu oʻrinda bir savol tugʻiladi. Oʻquvchi soʻzlarni qachon toʻgʻri talaffuz qila oladi? Fikrimizcha, u qachonki, fonetika va toʻgʻri talaffuz boʻyicha nazariy bilimlar bilan qurollangan boʻlsa, shuningdek, nazariyani amaliy mashqlar va topshiriqlar bilan mustahkamlagan boʻlsa, bunga erishish unchalik qiyin boʻlmaydi.

Taʼlim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy oʻrta taʼlim maktablarda oʻzbek tili kommunikativ tamoyil asosida ikkinchi til sifatida oʻqitiladi. Shuning uchun taʼlim mazmunida asosiy diqqat-eʼtibor nutqiy va lingvistik kompetensiyaga qaratilgan boʻlib, oʻquvchilar oʻzbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida ogʻzaki va yozma erkin muloqot yuritishga qaratilgan fanga oid hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish koʻzda tutiladi.

Boshlangʻich taʼlimda oʻzbek tili fanini oʻqitishdan maqsad asosan oʻquvchilarning lugʻat boyligini oshirish, oʻzbek tilida muloqotga kirisha olish koʻnikmalarini hosil qilishdan iboratdir. Shunga koʻra 2-4-sinflar oʻquv dasturida **lugʻat, nutq namunalari, tinglab tushunish va soʻzlash, oʻqish va yozish** boʻyicha oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini shakllantirish koʻzda tutilgan⁵.

Ona tili darslarida 1-sinf oʻquvchilariga fonetika va grafikani oʻrgatishga katta oʻrin beriladi, chunki oʻquvchilar oʻqish va yozish jarayonini shu sinfda

egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

Tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda u haqida murakkab bilimlar, ta'riflar berilmaydi. Shunga qaramay, bolalarda tovush haqida to'g'ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Shunday ekan, o'zbek (davlat) tilini o'qitishda ham boshlang'ich sinflarda bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, grafika bilan bir qatorda fonetikaga doir murakkab bo'lmagan nazariyalarning berilishi va ular amaliy mashqlar, topshiriqlar vositasida mustahkamlanishi ma'qbul ko'riladi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili 2-sinfdan boshlab o'qitiladi. 2016-yil chop qilingan darslikda 1-mavzu – «O'zbekiston», to'rtinchi nashrda 1-mavzu – «Tanishuv» deb nomlangan. Har ikkala nashrda ham shu mavzulardan keyin harflarga oid ma'lumotlar, so'ng birin-ketin nutqiy mavzular keltirilgan. Ammo fonetika bo'yicha ma'lumotlar mavjud emas. Har bir harfga oid mavzuda o'sha harfning yonida grafik jadval keltirilgan. Bunda unli tovushlar qizil rangda ajratib ko'rsatilgan bo'lib, bizningcha, bu o'quvchilarda unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarning shakllanishi uchun yetarlicha emas. Pedagogik kuzatuvlar, o'tkazilgan tajribalardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, aksariyat o'quvchilar harf va tovushni bir-biridan farqlay olmaydi, shuningdek, harfning nechta tovushni yoki aksincha, harfiy birikmaning nechta tovushni ifodalayotganligini anglamaydi. Bunday muammolarning yechimi fonetika bo'yicha dastlabgi boshlang'ich bilimlarning ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek (davlat) tili o'qitilishining ilk davridayoq berilishi, shuningdek, to'g'ri talaffuzga doir mashqlar, topshiriqlar hamda mustaqil ishlarning darslikda yetarli darajada taqdim qilinishini taqozo qiladi. Chunki bu o'quvchilarning nutqiy savodxonligini o'stirish bo'yicha keyingi sinflarda olib boriladigan ishlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

To'g'ri, o'zbek tilida jami nechta tovush borligi, shulardan unli va undosh tovushlar soni haqida o'qituvchilar og'zaki ravishda bayon qilishadi. Shunday bo'lsa ham, nazariy ma'lumotlarning o'quvchining doimiy hamrohi – darslikda

aks etishi va shunga doir mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida ana shu ma'lumotlarga murojaat qilinishi samaradorlik omili bo'la oladi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga nutq tovushlari va harf xususida har qancha ma'lumot bermaylik, bu tushunchalarni ongli o'zlashtirishlari borasida sa'y-harakat qilmaylik, o'zbek (davlat) tili darslarida mashqlarni bajarish, so'zlarni nutq tovushlari va imlo jihatdan tahlil qilish jarayonida ko'pchilik o'quvchilar «tovush» va «harf» so'zlarini birining o'rnida ikkinchisini qo'llab, mazkur so'zlar anglatgan tushunchalarni farqlamasdan ishlatadilarki, bu o'quvchilar tomonidan tovush va harflar xususidagi bilim hamda amaliy ko'nikmalar yuzaki sayoz egallanganligini, yetarli darajada mustahkam o'zlashtirilmaganligini ko'rsatadi. Bunday holat ta'limning keyingi bosqichlarida salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Xo'sh, uning oldini olish, nuqsonlarni bartaraf qilish mumkinmi? Biz tilshunoslar bu muammoni, albatta, bartaraf qilishimiz zarur.

Pedagogika va psixologiyaga oid tadqiqotlardan ma'lumki, bilimlarni o'zlashtirish o'qilganda 10 foiz, eshitish asosida 20 foiz, ko'rish orqali 30 foiz, eshitish va ko'rish asosida 50 foiz, aralash holda 60 – 70 foiz, bajarish orqali 80 – 95 foizgacha bo'lishi mumkin. Shularni inobatga olgan holda 2-sinf o'zbek (davlat) tili darsligida fonetikaga doir murakkab bo'lmagan boshlang'ich nazariy va amaliy bilimlarning berilishini tavsiya qilgan bo'lardik.

Nima uchun fonetikaga oid dastlabki bilimlarning 2-sinf o'zbek tili darsligida berilishi maqbul ko'rilmogda? Negaki ta'limda biror narsani boshqa bir narsaga qiyosan o'rganish yaxshi samara beradi. Shunday ekan, harfga oid mavzular berilib bo'linganidan so'ng har bir so'zning tashqi tomonini shakllantiruvchi moddiy qobiq – nutq tovushlarining o'qitilishi maqsadga muvofiq. Shu o'rinda yana bir kerakli ma'lumotni aytib o'tish joiz. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish ham 2-sinfdan boshlanadi. Ushbu sinf darsligida harflarga oid mavzular berilganidan keyin «Ses ha'm ha'rip» degan mavzu berilgan.

Bu mavzuda quyidagicha grammatik qoida berilgan:

Sestin' jaziwdag' tanbas' ha'rip. Seslerdi aytamz ha'm yesitemiz, ha'riplerdi jazamiz, ko'remiz ha'm woqiyimiz²¹.

Dawisli sesler buwin jasaydi. So'zde dawisli ses qansha bolsa, buwin sani sonsha bo'ladi.

Bu mavzudan keyin esa «Dawisli sesler», «Dawissiz sesler», «Buwin» degan mavzular berilgan.

Endi esa 2-sinf o'zbek tili darsligida fonetik mashqlar va topshiriqlar qay darajada berilganligini ko'rib chiqalaylik. 2016-yil 2-sinf O'zbek tili darsligining II chorak oxirida 6-dars – «Takrorlash» darsi berilgan. Ushbu darsdagi 3-topshiriqni keltirib o'tamiz.

3-topshiriq. G' tovushi qatnashgan. so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ko'chirib yozing.

G'oq, g'oq, g'oq,

Dimog'im ko'p chog'.

III chorak boshida 1-mavzu – «O'yinchoqlar». Ushbu darsda quyidagicha topshiriq berilgan:

3-topshiriq. Tez aytishni ravon o'qing.

Mushuk maymunga miyovldi.

Toshtemir tosh tagidan toshbaqani topdi.

²¹Qoraqalpoq tili: Umumta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. G. X. Jumasheva. – No'kis, Bilim – 2013.

IV chorak 2-dars – «Idishlar» mavzusida mustaqil ish sifatida quyidagi tez aytish berilgan.

Oq choynakka oq qopqoq,

Ko‘k choynakka ko‘k qopqoq.

3-dars – «Mevalar» mavzusida esa mustaqil ish sifatida quyidagi tez aytish berilgan.

Rustam romni rosa randaladi.

Unsin uzum uzib, unga uzatdi¹⁰.

Bunday topishmoq va tez aytishlarning berilishi juda yaxshi, albatta. Negaki shu asosda o‘quvchilarning so‘zlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish qobiliyatlari yaxshilashadi, nutqi ravonlashadi. Shu bilan bir qatorda topqirlikka va tezkorlikka o‘rganadi, darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Ajablanarli tomoni shundaki, 2018-yil 2-sinf O‘zbek tili darsligida shunga o‘xshash aytilishi qiyin bo‘lgan tovushlar ishtirok etgan tez aytishlar umuman berilmagan. Darslikda mavzular tamomlanganidan keyin bittagina tez aytish berilgan xolos. Yuqoridagi tez aytishlarga e‘tibor bersak, bular, asosan, o‘quvchilarning xato talaffuz qiluvchi g‘, k, q, tovushlari ishtirok etgan so‘zlardan tuzilgan. Tez aytishni aytish jarayonida ular bir-biri bilan bahslashib, o‘sha tovushlarni, so‘zlarni to‘g‘ri aytishga o‘rganadi hamda bunga odatlana boshlaydi. Bilamizki, odatda kichkinalar r tovushini aytishda qiynalishadi. Ushbu tovush ishtirok etgan tez aytishni ko‘proq mash qilsalar ijobiy yutuqqa erishishlari tabiiy.

¹⁰ Rafiyev A., Muhammadjanova G., Toshpo‘latov T. Umumtalim maktablarining 2-sinfi uchun O‘zbek tili darslik. – T.: O‘zbekiston, 2016. 58-b.,61-b.

3-sinf o'zbek tili darsligida tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga katta e'tibor qaratilgan. Bunga darslikda berilgan quyidagi mashqlar va topshiriqlarni misol qilib keltiramiz.

To'g'ri talaffuz qiling.

k va **q** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling.

k	q
ko'l	qo'l
katak	qator
tok	toq
varrak	varaq
maktab	maqsad

Bu kabi mashq va topshiriqlar o'quvchilarning **k** va **q** tovushlari talaffuzini bir-biridan farqlay olish, talaffuzidagi o'zgachaliklar, shuningdek, ularni o'z o'rnida to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilishda juda katta ahamiyatga ega. Namuna asosida o'quvchilar **k** va **q** tovushi ishtirok etgan so'zlarga mustaqil ravishda misollar keltirishni o'rganadilar. Masalan: katta, ko'cha, keng, kitob, ko'k, koptok, O'zbekiston, kuz, kuch, ko'z, kapalak, kamalak, ko'ylak, karam; qalam, qaldirg'och, qor, qosh, quloq, qora, Samarqand, qo'shiq, o'qi, qavat, tovuq.

1-topshiriq. Savollarga javob bering. So'zlardagi **k** va **q** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling.

- Qaysi maktabda o'qiysiz?
-
- U qayerda joylashgan?
-
- Maktabingiz hovlisida nimalar bor?
-

Ushbu topshiriqda berilgan birinchi gapdagi so'zlar tarkibida ishtirok etgan q va k tovushlarini ketma-ketlik asosida talaffuz qilish orqali o'quvchilarning bu tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish malaka va ko'nikmalari shakllanadi. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish asosida o'quvchilarning og'zaki nutqi rivojlansa, javoblarni

yozma shaklda ifodalash orqali yozma nutqi ham rivojlanadi. Demak, bu kabi mashq va topshiriqlarning darsliklarda taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

1-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring, keyin **k** harfli so'zlarni bir ustunga, **q** harfli so'zlarni ikkinchi ustunga joylashtiring.

1. Bu yil . . . (maktabimiz, xonamiz) uchun yangi bino qurildi. 2. U to'rt qavatli, katta . . . (o'qituvchisi, hovlisi) bor. 3. Maktab hovlisida kichik . . . (tajriba maydonchasi, kutubxona) ochilgan. 4. . . . (oshxona, 3-sinf xonasi) ikkinchi qavatda joylashgan.

Berilgan mashq shartiga binoan nuqtalar o'rniga qo'yilishi kerak bo'lgan so'zlarni qo'yib bo'lgach, **k** va **q** tovushi ishtirok qilgan so'zlarni berilgan gaplar ichidan tanlab olinadi va ikki ustunga ajratib yoziladi. Masalan:

k harfli so'zlar

maktabimiz

katta

maktab

kichik

kutubxona

ikkinchi

q harfli so'zlar

qurildi

qavatli

o'qituvchisi

qavatda

ng tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

keng

ming

singil

bering

rang

yengil

tong

o'ng

dangasa

Ng harfiy birikmasining talaffuz jarayonida bir tovush sifatida ifodalanishi, uni **n** va **g** tovushlaridan farqlay olishda yuqoridagi kabi topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar mana shu so'zlar yordamida **ng** tovushining talaffuzi va ifodalanishini bilib oladilar. Namuna asosida mustaqil ravishda ham lug'at zaxiralarini boyitadilar. Masalan: dengiz, ko'ngil, keling, o'zingiz, sening. **N** va **g** tovushlarini ifodalaydigan so'zlarga misollar: senga, menga, tanga, osmonga.

1-mashq. **B** va **p** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling va so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va so'zlarni eslab qoling.

baho	obbo	past	do'ppi
barpo	niqob	pufak	oppoq
bilim	kabob	pushti	xo'p
bugun	betob	po'lat	o'pka

To'g'ri talaffuz mashqi o'qib bo'lingach, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning ushbu so'zlarni qay darajada o'zlashtirganini aniqlash maqsadida besh-olti so'zdan iborat lug'at diktant olinsa yaxshi samara beradi. Bunda, asosan, o'quvchilar xato yozishi mumkin bo'lgan so'zlardan lug'at diktant olinishi maqsadga muvofiq. Masalan: **obbo, niqob, kabob, betob, pufak, do'ppi, oppoq.** Bu so'zlarning ko'pchiligini og'zaki talaffuz qilganda **b** tovushi **p** tovushiga moyil talaffuz qilinadi, lekin asliga ko'ra **b** yoziladi. Ko'rinadiki, so'zlar o'z-o'zidan to'g'ri talaffuz qilinmaydi. Ularni to'g'ri talaffuz qilish so'z tarkibidagi har bir tovushni to'g'ri talaffuz qilish orqali amalga oshadi. Shuningdek, ayrim so'zlar to'g'ri talaffuzi va to'g'ri yozilishi bir-biridan farqlanadi. **Niqob, kabob, betob do'ppi** kabi so'zlar bunga misol bo'la oladi.

Ushbu darslikdagi «Bahor keldi» mavzusida quyidagicha topshiriq berilgan:

4-topshiriq. Berilgan so'zlardagi **x – h** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling va bu so'zlarni eslab qoling¹².

xalq	daraxt	hamma	bahor
xato	shox	hashar	mahalla
xalta	tuxum	hayot	mehnat

O'qituvchi darslikda berilgan topshiriqlardan ijobiy namuna olgan holda o'quvchilarga quyidagicha topshiriq berishi mumkin.

x – h tovushlari ishtirok etgan so'zlarning har qaysisiga to'rt-besh misol toping va uni daftaringizga yozing.

O'quvchilar berilgan topshiriqni quyidagicha bajarishlari mumkin:

xalq	xo'roz	haykal	shahar
xato	baxt	harf	mehr

Bu topshiriq asosida o'quvchilarning yozma nutq savodxonligi ham tekshiriladi.

«Bahor keldi» mavzusining 2-darsida quyidagicha qoida berilgan:

Yodda tuting!

d tovushi ko'pincha so'z oxirida jarangsiz talaffuz qilinadi va **t** tarzida aytiladi. Masalan: qand – qant

Qoidadan keyin shunday topshiriq berilgan: **2-topshiriq**. Berilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling, **d** tovushining jarangsizlashuviga e'tibor bering¹².

¹²O'zbek tili: Umumta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik Rafiyev A., Muhammadjanova G., Ziyamammedova G. – T.: O'zbekiston, 2016. 97-b.

avlod		aytdi
obod	d > t	ketdi
baland		yetdi
xursand		tutdi

Shu o'rinda shuni aytib o'tish o'rinliki, o'zbek (davlat) tili darsliklarida qo'llanilgan jarangsiz va jarangli so'zlarining mazmun-mohiyatini o'quvchilar unchalik yaxshi tushunmaydilar. Negaki ular jarangli va jarangsiz undosh tovushlari haqida ma'lumotga ega emaslar. Shuning uchun o'qituvchi bunday vaziyatlarda qiyoslash metodidan foydalansa yaxshi samara beradi. O'quvchilarning o'z ona tillari bilan taqqosab o'rgatsa, unga misollar keltirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: turkman tilida jarangli (a'çyk) va jarangsiz undoshlar (dymyk çekimsizler) deb ataladi.

Darslikning 20-mavzu – «Assalom, Navro'z» 2-darsida bilib oling va yodda tuting shartli belgisi asosida quyidagicha qoida berilgan:

Undosh tovushlar ko'proq so'z oxirida jarangsiz talaffuz qilinadi. Qiyoslang va eslab qoling.

b > p	q > g'	d > t	z > s
makt ab	bayro q	xursan d	boramiz
kit ob	toycho q	balan d	og'iz
kab ob	qaymo q	qan d	qog'oz

O'zbek tilidagi kabi turkman tilida ham **b, g, d, z** tovushlari jarangli undosh tovushlar (a'çyk çekimsizler) ekanligi haqida yuqorida aytib o'tildi. Misollarda keltirilgan so'zlarning har ikki tildagi og'zaki talaffuzi va yozma shakliga e'tibor bersak, bularning o'xshash jihatlari bilan birgalikda o'ziga xosliklari ham mavjudligini bilib olamiz. Jumladan, o'zbek tilida makt**ab**, kit**ob**, kab**ob**, xursan**d**, balan**d** kabi so'zlarning oxiridagi jarangli **b** undoshi og'zaki talaffuzda **p** tovushiga, **d** undoshi esa t tovushiga moyil aytilsa ham, asliga ko'ra **b, p** undosh tovushlari yoziladi. Turkman tilida esa mekde**p**, kitap**, kebab, belent, gant** so'zlari oxiridagi jarangsiz p, t undosh tovushlari ham og'zaki nutqda aytiladi, yozuvda ham saqlanadi.

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga ko'ra **k, q** undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k** undoshi **g** undoshiga **q** undoshi **g'** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak – tilaging, yurak – yuragim, bek – begi, tayoq – tayog'i, qo'shiq – qo'shig'i yo'q – yo'gi kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k, q** tovushlari aslicha aytiladi va yoziladi: ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqim, ravnoq – ravnoqi kabi.

Ayrim so'zlar tarkibidagi jarangsiz undosh tovushlarning jaranglilashish hodisasi turkman tiliga ham xosdir. Masalan: kitap – kitaby**m**, mekdep – mekdebimiz, *ýüre**k*** – *ýuregi**ñ***, barmak – barmagy va shu kabilar. Keltirilgan misollardan ma'lumki, bunday holatda so'zlar egalik (*ýöñkeme*) qo'shimchalarini qabul qilgan bo'ladi.

Demak, o'quvchilarga jarangli va jarangsiz undosh tovushlar va shunga doir amaliy mashqlar, topshiriqlari bajartirishda mavhum bo'lgan tushunchalarni ona tili nazariyasi va amaliyoti bilan **taqqoslash** asosida tushuntirish maqsadga yaxshi samara beradi.

Pedagogik kuzatuvlar, o'tkazilgan tajribalardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ta'lim turkman tilida olib boriladigan maktablardagi aksariyat o'quvchilar, asosan, **x va h tovushi** ishtirok etgan so'zlarning imlosida xato yozadilar. Negaki

O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: O'zbekiston, 1995. 13-,14-b.

turkman tilida **h** tovushi bor, ammo **x** tovushi yo'q. Bularni farqlash uchun o'quvchilar ushbu tovushlarning tasnifini bilish barobarida ularni to'g'ri talaffuz qilishi, bir-biridan farqlashi lozim. 4-sinf o'zbek tili darsligida **h** va **x** undoshlari haqida quyidagicha qoida berilgan:

X tovushi tilning eng orqa qismidan sirg'alib chiquvchi undosh bo'lib, nisbatan qattiq talaffuz qilinadi.

H tovushi esa bo'g'izdan sirg'alib chiqadi va yumshoq aytiladi.

Qiyoslang: shox – shoh, xol – hol, xalta – halqa.

X va **h** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling.

xona	hovli
xontaxta	dahliz
xizmat	hurmat
dasturxon	hashamatli
ixcham	ishtaha
oshxona	mahalla

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda, h va x tovushi ishtirok etgan so'zlarning darsliklarda bilib oling sifatida ko'proq berilishi o'quvchilarning lug'at zaxiralarini boyitadi. Endilikda o'quvchi shu so'zlarga murojaat qilganda, bu so'zlarni to'g'ri yozishni o'rganadi va bunga odatlanadi.

Ushbu darslikda sh undosh tovushi haqida quyidagicha qoida berilgan:

S va **h** harflarining birikishidan hosil bo'lgan **sh** undoshi tilning oldingi qismidan sirg'alib chiqadi va yumshoq talaffuz qilinadi.

Ammo tilning orqa qismida hosil bo'ladigan unli va undoshlar bilan yonma-yon kelganda qattiq aytiladi. Qiyoslang: shamol – shox, shirin – qishloq.

Quyida berilgan so'zlardagi **sh** tovushini to'g'ri talaffuz qilishga odatlaning!

shahar	sholi
shakar	yumshoq
shamol	qo'shiq
ishla	xashak
mashhur	qush
shudgor	sho'x

Shuningdek, darsliklarda bu tovushlarga oid tez aytishlarning berilishi esa ayni muddaodir. Negaki o'quvchi bu tovushlarning nafaqat imlosi, balki to'g'ri talaffuzini bilishi shart. Quyida darslikda keltirilgan tez aytishlarni keltirib o'tamiz:

Xato xabar xom xayoldan xatarli.

Hakim hashamatli hovlisidan Hoshimning xo'rozini haydabdi.

Shokir shamolda sholini shopirdi.

Qishda kishmish pishmismish,

Kishmish pishsa qishmismish¹³.

Darhaqiqat, darsliklarda bunday tez aytishlarning berilishi quvonarli hol,

¹³O'zbek tili: Umumta'lim maktablarining 4-,5-sinflari uchun darslik. Rafiyev A., Muhammadjonova G. – "O'qituvchi": Toshkent, 2017. 48-b.

albatta. Birinchidan, o'quvchi tez aytish asosida ushbu tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi. Ikkinchidan, tezkorlikka, chaqqonlikka o'rganadi. Tez aytishni to'xtamasdan ko'p marta aytish – bu bolalarning sevimli mashg'uloti. Demak, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishining ortishida tez aytishlar muhim ahamiyatga ega. Tez aytishni tinimsiz mashq qilish asosida o'quvchining nutqi ravonlashadi, o'ziga bo'lgan ishonchi birmuncha ortadi.

2.2. Yuqori sinf o'quvchilariga fonetikani o'qitish zarurati

Ilmiy-metodik nashrlarda tilning boshqa sathlari bo'yicha ko'plab maqolalar chop etilyapti, ammo negadir fonetika ustida ishlashga kam e'tibor berilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ona tili ta'limining dastlabgi bosqichida ham, bugungi kunda mustaqil, ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan yuqori bosqichida ham nutq tovushlarini mukammal o'rganishni ta'minlovchi maxsus fonetik mashqlarga e'tibor qilinmaydi. Ayniqsa, darsliklarda ayrim tovushlarning talaffuzi va imlosini o'zlashtirish bo'yicha maxsus mashqlar yo'q¹.

Boshlang'ich hamda yuqori sinf o'quvchilariga fonetikani o'qitishning zarurati katta. Chunki ona tili, o'zbek (davlat) tili ta'limidan asosiy maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini birdek shakllantirish va rivojlantirishdir. Bunda fonetikani o'qitishning ahamiyati katta. Qolaversa, tilshunoslik bo'limlarini bir-biri bilan ierarxik munosabatda o'rgatish, o'quvchilarning bu bo'limlarni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, bir bo'lim yuzasidan olingan bilimlar ikkinchisini o'rganish uchun imkon yaratadi.

O'zbek (davlat) tilining yuqori sinflar uchun mo'ljallangan darsliklarida fonetika bo'yicha berilgan mavzular nihoyatda oz. O'zbek tili fani o'quv dasturida quyidagicha deyilgan: «5-9-sinflarda esa o'zbek tili fanidan nazariy bilimlar berish orqali o'quvchilarga so'z tarkibi, uning yasalishi, so'z turkumlari va ularning o'zgarishi, so'zlarning o'zaro bog'lanish, so'z birikmasi hamda gap tuzish qonuniyatlarini o'rgatish ko'zda tutiladi. Shunga ko'ra bitiruvchilar o'zbek tilida so'zlarni o'zaro to'g'ri bog'lab gap tuza olishi va nutqning dialogik va monologik shakllarida erkin muloqot yurita olishi lozim. O'quv dasturida sinflar kesimida har bir nutqiy mavzu doirasida beriladigan **leksik minimum** (tayanch so'zlar va birikmalar), **grammatik minimum** (so'z shakllari va grammatik bilimlar),

¹Hamroyev G'. Ona tili darslarida fonetika ustida ishlash. Til va adabiyoti ta'limi – Toshkent, 2010. 9-son. 10-13-b.

muomala odobi, adabiy o‘qish va ish qog‘ozlarini yozish yuzasidan materiallar berildi. Jumladan, 5-6-sinflarda mavzular **leksika, grammatika, muomala odobi, adabiy o‘qish**; 7-9-sinflarda esa **leksika, grammatika, ish qog‘ozlarini yozish** va **adabiy o‘qish** sifatida taqsimlandi. Bunda leksika har bir nutqiy mavzu bo‘yicha belgilangan tayanch so‘z va birikmalar hamda nutq namunalaridan, grammatik bilimlardan tashkil topdi. 5-8-sinflarda tilning morfologiya bo‘limiga oid bilimlar, 9-sinfda sintaksis bo‘limi orqali so‘z birikmasi va sodda gapga oid bilimlarni izchillikda o‘stirib borish ko‘zda tutildi. Zero, ushbu bilimlarni egallash orqali o‘quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga erishiladi»⁶.

Ko‘rinyaptiki, fonetik bilim nazardan chetda qolib ketgan. Ammo shuni aytib o‘tish joizki, 5-, 6-,7-, 8-, 10-sinf o‘zbek tili darsliklarida fonetik o‘zgarishlar bilan bog‘liq nazariy qoidalar bor. Buni quyida ko‘rib chiqamiz.

5-sinf o‘bek tili darsligidagi 1-mavzu – **Mening Vatanim. (Olmosh. Kishilik va ko‘rsatish olmoshlari)** Shu mavzuning 2-darsida quyidagicha nazariya bor:

Birlik sondagi **men, sen** kishilik olmoshlariga **-ni, -ning, -niki** qo‘shimchalari qo‘shilganda bitta **-n** undoshi tushib qoladi va shunday yoziladi: **men + ni > meni, sen + ning > sening, men + niki > meniki** kabi.

Shu, bu, u, o‘sha ko‘rsatish olmoshlariga **-ga, -da, -dan, -day** qo‘shimchalari qo‘shilganda o‘zakda bitta **n** undoshi orttirilib talaffuz qilinadi va yoziladi: **shu + ga > shunga, u + da > unda, bu + dan > bundan, o‘sha + day > o‘shanday.**

Lekin shu qoidaga doir mashq berilmagan. Aslida nazariyani amaliyot bilan mustahkamlash yaxshi samara beradi. Darslikdagi 5-mavzu: **Mening sinfdoshlarim. (Egalik qo‘shimchalari).** Ushbu mavzuning 1-,2-darsida

⁶O‘zbek tili fanidan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent – 2018.

quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

Obro', parvo, mavqe, mavzu, avzo kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda bir **y** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: obro'yim, parvoying, avzoyi. Egalik qo'shimchasi **k** va **q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda, so'z oxiridagi harf o'zgaradi ($k > g$, $q > g'$) va quyidagicha yoziladi: istak + im > **istagim**, o'rtoq + ing > **o'rtog'ing** kabi¹³.

Birinchi qoida bo'yicha mashq yoki topshiriq berilmagan. Ikkinchi qoida bo'yicha esa quyidagicha mashq berilgan:

4-mashq. Egalik qo'shimchalari qo'shilganda qaysi so'zlarda tovush o'zgarishini aniqlang. Ularni namunadagidek ikki ustunchaga ajratib ko'chiring.

Do'sting, bilagim, bayrog'imiz, ko'magi, qalpog'i, suratimiz, qishlog'imiz, tilagingiz, so'rog'ingiz, o'chirg'ichim, yuragi, oyog'ing, varag'i, varraging, baligim, yordaming, bilimimiz, to'garagimiz, pishlog'ingiz, chelaging.

Namuna:

$k > g$	$q > g'$
elagi	qulog'i
mushugi	paypog'i

O'quvchilar buni namunadagidek quyidagicha bajaradilar:

bilagim	bayrog'imiz
ko'magi	qalpog'i
tilagingiz	qishlog'imiz

¹³O'zbek tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfl uchun darslik. Rafiyev A., Muhammadjonova G. – "O'qituvchi": Toshkent, 2017.

yuragi	so'rog'ing
varraging	oyog'ing
to'garagimiz	varag'i
chelaging	balig'im

Bu kabi mashqlarni ishlash asosida o'quvchi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlab oladi. Zero til ta'limida amaliy mashq va

topshiriqlarning o'zni beqiyosdir. Shuning uchun ham nazariyaga doir amaliyotning ham berilishini maqbul ko'rmoqdamiz.

Ayni shu mavzuning 2-darsida ba'zi ikki bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, qisqa **a, i, u** unli tovushlarining tushib qolishi bilan bog'liq nazariy qoida bor. Undan keyin nazariyaga doir mashq berilgan. O'quvchilarning bilimi, topqirligi va chaqqonligini yanada rivojlantirish maqsadida o'qituvchi darsda mashqqa qo'shimcha sifatida «**Kim ko'p biladi?**» usulini qo'llashi mumkin. Bunda egalik qo'shimchalari qo'shilganda qisqa aytiladigan a, u, i unli tovushlari tushib qoladigan so'zlardan ko'p topish nazarda tutiladi. O'quvchilar buni quyidagicha bajarishlari mumkin: shahrim, zahri, burning, ko'nglim, singlimiz, og'zi o'ringiz, qornim, bag'rim, bo'yni.

6-sinf o'zbek tili darsligidagi «Kutubxonada. Shaxs va narsa-buyum otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi» mavzusining 3-darsida **-q** narsa-buyum oti yasovchi qo'shimcha **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda **a** unlisi **o** shaklida talaffuz qilinishi va shunday yozilishi haqida ma'lumot berilgan. Ammo bunga doir mashq yoki topshiriq yo'q. 7-sinf o'zbek tili darsligidagi «Adabiyot muzeyida. Fe'l yasovchi qo'shimchalarning qo'llanishi» mavzusida tovush almashishi va tushishi haqida qoida berilgan. Bu qoidalarni keltirib o'tamiz.

Son, ong so'zlariga -a, -la fe'l yasovchi qo'shimchalari qo'shilganda, asosdagi o tovushi, a tovushiga aylanadi va shunday yoziladi: ong – angla, son-sana kabi.

-a fe'l yasovchi qo'shimchasi o'yin, qiyin kabi so'zlarga qo'shilganda, bu so'zlardagi i unlisi tushib qolad: o'yin + a – o'yna, qiyin + a – qiyna.

-illa fe'l yasovchi qo'shimchasi tarkibida u unlisi bo'lgan bir bo'g'inli so'zlar qo'shilganda qo'shimcha tarkibidagi i tovushi u tovushiga aylanadi: guvullamoq, gurullamoq.

Shunisi quvonarliki, ushbu qoidaga oid mashq berilgan. Mashq orqali o'quvchilar nazariyani puxta o'zlashtirib oladilar. Mavzuga doir bilmagan, mavhum bo'lgan tushunchalarni yana bir bora so'rab, bilib oladilar.

2-mashq. Gaplarni o'qing. Yasama fe'llarni toping va ular tarkibida sodir bo'lgan tovush o'zgarishlarini tushuntiring.

1. G'iyosiddin Kichkina o'z o'g'lini Alisher deb atadi. 2. Yosh Alisherni atrofda sodir bo'layotgan adolatsizliklar qiynaydi. 3. O'rtoqlari bilan o'ynab yurgan Alisherning ko'zi beixtiyor Sharafuddin Ali Yazdiyga tushdi. 4. Hazrat Navoiy bir umr xalq manfaatini o'ylab yashadi.

Ushbu gaplarda tovush o'zgarishlari sodir bo'lgan fe'llar: **atadi, qiynaydi, o'ynab, yashadi.** Pedagogik kuzatuvlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, aksariyat o'quvchilar **atadi** so'zi tarkibidagi fonetik o'zgarishni aglamay qoladilar. Negaki asos va qo'shimchalarga ajratishda biroz qiynaladilar. Mashq orqali o'quvchilar bilmagan narsasini bilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Demak, nazariyani chuqur o'zlashtirishda amaliy mashqlarning ahamiyati katta ekanligini unutmaslik lozim. Birinchi gap tarkibidagi **o'g'lini** so'ziga e'tibor beraylik. Ushbu so'z tarkibida tovush tushish hodisasi ro'y bergan, biroq u fe'l so'z turkimiga kirmaydi. Bunda ko'pchilik o'quvchilar 5-sinfda o'tilgan qoidani eslaydi, ba'zilari esa xotirasi o'tkir, faol do'stlari yordamida avval o'tilgan bilimlarni esga tushiradi. Uchinchi gapning boshida **o'rtoqlari** so'zi berilgan. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha savol bilan murojaat qilishi mumkin: **o'rtoqlari so'ziga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, so'z tarkibida qanday tovush o'zgarishi ro'y beradi?** O'quvchilar esa 5-sinda o'tilgan bilimlarni xotirlash asosida shunday javob beradilar: tovush almashishi, o'rtoq + im – o'rtog'im.

O'zbek tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Muxitdinova X. S., Avlakulov Y. I., Nuriddinova D. A. – "O'qituvchi", Toshkent – 2017.

ro'y beradi? O'quvchilar esa 5-sinda o'tilgan bilimlarni xotirlash asosida shunday javob beradilar: tovush almashishi, o'rtoq + im – o'rtog'im. Darhaqiqat, ta'limda mavzular bir-biri bilan bog'lab o'rgatilsa, yaxshi samara beradi.

8-sinf o'zbek tili darsligidagi «Vatan sarhadlari. Fe'ning sifatdosh shakllari» mavzusida tovush almashishi bilan bog'liq qoida berilgan. Quyida buni keltirib o'tamiz:

-gan qo'shimchasi k tovushi bilan tugagan so'zlarga -kan, q tovushi bilan tugagan so'zlarga -qan shaklida qo'shiladi va shunday yoziladi. Masalan: buk – bukkan, chiq – chiqqan.

-r (-ar) qo'shimchali sifatdoshlarga -ma qo'shimchasi qo'shilganda r tovushi s tovushiga aylanib, -mas shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan: botar – botmas, chiqar – chiqmas kabi.

Darslikda ushbu nazariyaga oid 5-, 6-mashqlar berilgan. 5-mashq shartiga ko'ra so'zlarga mos keladigan sifatdosh qo'shimchalarini qo'shish lozim. Masalan: aytgan, ekkkan, chiqqan, eggan, qo'rqqan, o'tgan va shu kabilar. Shuningdek, o'qituvchi mashqqa qo'shimcha sifatida o'quvchilarga quyidagicha topshiriq berishi mumkin:

Topshiriq. -kan, -qan qo'shimchali sifatdoshlar qo'shiladigan so'zlardan o'ylang, izlang va toping.

-kan qo'shimchali sifatdoshlar	-qan qoshimchali sifatdoshlar
ekkan	chiqqan
bukkan	oqqan
tikkan	qo'rqqan
kechikkan	yoqqan
ko'nikkan	boqqan

O'qituvchi «**O'yla, izla top**» usuli orqali o'quvchilarning topqirlik va chaqqonlik layoqatini ham o'stiradi.

10-sinf o'zbek tili darsligidagi 1-mavzu – O'zbekiston – jannatmakon o'lka. O'tilganlarni takrorlash. O'zbek tilining orfoepik va orfografik me'yorlari. Ushbu mavzuda quyidagicha qoida berilgan.

Talaffuz jarayonida so'z tarkibidagi tovushlar turli o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu fonetik tovush o'zgarishlari deb atalib, ularga tovush tushishi,

tovush ortishi, tovush almashinishi kiradi. Masalan: singil + im = singlim, u + ga = unga, chiroq + ga = chiroqqa, bilak + ga = bilakka¹⁶.

Ushbu qoidadan keyin esa quyidagi jadval keltirilgan.

Tovush o'zgarishi	Tovush tushishi	Tovush almashinishi
<p>Terak, qishloq, bolalik singari ikki va ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismining oxirgi k, q tovushi g va g' tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: teragi, qishlog'i, bolaligi</p>	<p>Qorin, o'g'il, shahar kabi ikkinchi bo'g'inida i unlisi ishtirok etgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qoshilganda ikkinchi bo'g'indagi i yoki a unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi: qorni, shahri</p>	<p>Chiroq, qirq, kurak, bilak kabi oxiri k tovushi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi -ka shaklida, q tovushi bilan tugagan so'zlarga -qa shaklida qo'shiladi va shunday yoziladi: chiroqqa, kurakka, bilakka</p>

Jadvaldan ko'rinyaptiki, nazariyani yoritishda biroz kamchilikka yo'l qo'yilgan. Jadvalning birinchi va uchinchi qismida berilayotgan qoida tovush

¹⁶O'zbek tili: Umumta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Muxitdinova X. S., Muhammadjonova G. Z., Talipova F.S., Eshbayeva R. B. – "Davr nashriyoti", Toshkent – 2017.

almashinishi deya bir qismda birlashtirilgan holda berilishi kerak edi. Tovush o'zgarishlari – bu tovush tushishi, tovush almashishi, tovush orttirilishining umumiy nomidir. Ayni shu darslikda keltirilgan yuqoridagi qoida fikrimiz isbotidir.

Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, ikkinchi bo'g'inida **i** unlisi ishtirok etgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi **i** yoki **a** unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi degan qoidaga biroz o'zgartirish kiritilishi darkor. Negaki bunday qoidalar o'quvchining bilimini, fikrini chalkashtirib yuborishi mumkin. Demak, darsliklarda berilatoygan nazariyalar to'g'ri va aniq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun bu qoidani quyidagicha berishni tavsiya qilamiz.

Ba'zi ikki bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi **a, i, u** unli tovushlari tushib qoladi va shunday yoziladi: shahrimiz, burnim, ko'ngli kabi.

Darslikda ushbu qoidalarga doir bir nechta mashqlar keltirilgan. Bu orqali o'quvchilar mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlab oladilar. Xulosa o'rnida aytish kerakki, boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilariga fonetikani o'qitishning ahamiyati katta. Fonetika bo'limini o'qitish quyidagi vazifalarni ko'zda tutadi:

- 1.O'quvchilarni adabiy talaffuz me'yorlariga o'rgatish.
- 2.O'quvchilarning savodxonligini oshirish maqsadida ularni zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar biloan qurollantirish.
- 3.O'quvchilarning so'z boyligini oshirish.
- 4.O'quvchilarda turli lug'atlar va ma'lumotnomalar bilan ishlash malakalarini rivojlantirish.

Umuman olganda, “Fonetika” bo’limini o’qitish jarayonida o’quvchilarga ko’plab imloviy bilimlar berish, ularning savodxonligini yaxshilash imkoniyatlari keng. Buni to’g’ri yo’lga qo’ya bilish o’qituvchi mahoratiga bog’liq.

Fonetika bo’limini o’qitishda sathlararo bog’lanishni yo’lga qo’yish imkoniyatlari ham keng. Bu bo’limni orfografiya, leksikologiya, sintaksis kabi bo’limlar bilan bog’liq holda o’qitish mumkin.

III BOB. O'QUVCHILARDA FONETIKA BO'YICHA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

3.1. Fonetika nazariyasini o'rgatishning zamonaviy usullari

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"¹. Bu dono fikrlar yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchi shaxsi uchun ayni muddao bo'lishi, ta'lim samaradorligini yaxshilash uchun astoydil harakat qilmog'i darkor.

Bugun har bir darsni zamonaviy o'qitish metodlari asosida tashkil etish o'quvchilar bilim samaradorligini oshiruvchi eng muhim omil. Mahoratli o'qituvchi hamisha ilg'or tajribalarni tezda o'zlashtirib oladi. Shuning uchun pedagogikada kasbiy omilkorlik tushunchasi tarkibiga «yangicha», «ilg'or», «ijodkorlik», «kasb tafakkuri» kabi tushunchalar singdiriladi. Bu tushunchalarning rivoji o'qituvchining mahoratida namoyon bo'ladi. Darsda qo'llanilayotgan interfaol usullar o'qituvchining o'z ustida ko'proq ishlashiga, o'quvchining mustaqil, tanqidiy fikrlay olishiga, ijodiy izlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan bir qatorda, yashirin qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi².

Interfaol usullardan foydalanilganda mavzu bayoni mumkin qadar soddalashadi va o'quvchilar uchun tushunilishini osonlashtiradi. Jumladan, "**Blits-so'rov**" metodi berilgan savollarga qisqa, aniq, lo'nda va tez javob qaytarishga o'rgatishni mashq qilish usuli sanaladi. O'qituvchi tomonidan savollar beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Savollarga to'g'ri va aniq javob bergan guruh yoki o'quvchi

Karimov I. A. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1994.

Boshlang'ich ta'lim – Toshkent. 2016, 2-son. 9-b.

rag'batlantiriladi. 3-, 4-sinf o'zbek tili takrorlash yoki mustahkamlash darslarida o'quvchilarning fonetik bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish maqsadida "Blits-so'rovnoma" o'tkazish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagicha savollarni berishi mumkin.

- O'zbek tilida nechta tovush bor?
- 30 ta tovush bor.
- O'zbek tilida nechta harf bor?
- 29 ta harf bor.
- O'zbek tilida nechta unli tovush bor?
- 6 ta
- Ular qaysilar?
- a, o, o', e, u, i.
- O'zbek tilida nechta undosh tovush bor?
- 24 ta.
- Ko'ramiz, o'qiymiz va yozamiz. Harfmi yoki tovushmi?
- Harfni ko'ramiz, o'qiymiz va yozamiz.
- Televizor so'zida nechta bo'gin bor?
- 4 ta bo'gin bor.
- Televizor so'zida ochiqva yopiq bo'g'inlar soni qancha?
- 3 ta ochiq bo'g'in, 1 ta yopiq bo'g'in.
- Bo'giz undoshi ishtirok etgan so'zlardan uchta misol ayting.
- Bahor, mehmon, hovli.
- Qattiq talaffuz qilinuvchi x tovushi ishtirok etgan so'zlardan uchtasini ayting.
- Daraxt, xalq, xona.
- Ng tovushi ishtirok etgan so'zlardan bir-ikkitasini ayting.
- Singil, ko'ngil, boring.

Shuningdek, fonetikaga doir nazariy bilimlarni o'qitishda «**Zakovatli zukko**» usulidan foydalanilsa bo'ladi. «**Zakovatli zukko**» metodi o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur

tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. Ushbu metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchi yoki talabalar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga tez (qisqa vaqt davomida) to'g'ri va aniq javob bera olishlari zarur. Har bir savolga berilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Metod o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin. Bunda o'qituvchi «**Zakovatli zukko**» usulidan foydalangan holda o'quvchilarni zakovatli, zukko va tezkor bo'lishga da'vat etadi.

Mavzuga doir nazariyani o'rgatishda grammatik topishmoqlardan unumli foydalanish yaxshi samara beradi. Negaki topishmoqlarni topish bolalarning sevimli mashg'uloti hisoblanadi. Ayniqsa, til ta'limida topishmoqlardan foydalanish bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda aqlini charxlaydi. Quyida unli tovushlar va ularning yozuvdagi ifodasiga oid topishmoqlar berilgan. Qiziqarli tomoni shundaki, «**Topishmoq ichida topishmoq**»lar yashiringan. Ushbu topishmoqlar javobini topish orqali o'quvchilarning grafika va fonetika oid bilimlari mustahkamlanadi. Grammatik topishmoqlar ommaviy tarzda berilganda, topishmoqning javobini birinchi bo'lib to'g'ri topib aytgan tartibli o'quvchilar ballga ega bo'lib boraveradi. Kim tartibsizlik qilsa jazo tariqasida to'g'ri javobi uchun ham ball berilmaydi yoki to'plagan ballaridan ham mahrum bo'ladi.

Qaysi bo'lim qilar mening tasnifim,

To'g'ri javob aytar a'lo o'quvchim.

(Fonetika)

Og'iz bo'shlig'ida uchramay to'siq,

Bemalol chiqamiz, topamiz eshik

(Unli tovushlar)

Alifbo tartibin o'zim tizganman,
Birinchi raqamdan o'rin olganman.
Arab yozuvida "Alif"dir nomim,
O'qiysiz, yozasiz, ko'rasiz shaklim.

("A" harfi)

Tilning uchin pastki tishga qadayman,
Labni urintirmay tezda chiqaman.
Oltita unlikdan quyi keng unli,
Topganga aytaman ofarin balli.

("A" tovushi)

Oltita unlikning til old qatori,
Lablanmagan, biling o'rta keng unli.

("E" unlisi)

Erkin so'zida men qatnashgan bo'g'in,
Bu qanday nomlanar aytingiz turin.

(Yopiq bo'g'in)

Bebahoda qanday bo'g'in turiman,
Savolning javobin darhol kutaman.

(Ochiq bo'g'in)

E'londa, ne'matda aytingiz cho'ziq,

Sababin aytsangiz – bu sizga yutuq.

(Tutuq belgisi bo'lgani uchun)

E'tiqodga qo'yib tutuq belgisi,

Bo'ling yurtning e'tiqodli kishisi.

Tutuq belgisidan farqlagin ma'no,

Bunga misol aytar bilimli, dono

(She'r – sher)

Til oldi unlining yuqori tori,

Lablanmagan tugar shudir oxiri

(“I” unlisi)

Fikrda qo'shaloq qilsangiz meni,

Nimani buzasiz aytingiz shuni?

(Imlo qoidasini)

Baxtda kelgan qator undoshlar,

O'ylab ko'ring qanday nomlanar?

(Qator undoshlar)

Talaffuz qilsangiz meni og'zaki,

To'g'ri ayting also bo'lmang yuzaki.

Tishdan uzoqlashib tillar orqaga,

Bir muncha cho'zilar lablar oldinga.

Biroz yordam beray quyi keng unli,

Bittasi aytildi menman oxiri!

(“O” unlisi)

Taraga qo’shganda qaysi undoshni,

Alif bo’shatadi menga o’rnini.

(“Q” undoshi)

“V” tovushin qo’shsak, *unda* so’ziga,

Yuz beradi tilda qanday hodisa.

(Tovush almashishi)

Eshiting tasnifim qilaman lo’nda,

Tor harakat qilar tillar orqada,

Tallafuzimda bo’lib lab doira,

Oldinga intilar qaragin bunga.

(“U” tovushi)

Muallim so’zida turli xil unli,

Yonma-yon kelgandir, aytsangiz, balli!

(“UA” unlilari)

Ikki xil unli yonma-yon kelar,

Bu qanday unlilar deya nomlanar?

(Qator unlilar)

Meni eshitishga bo’lingiz mushtoq,

O’rtog’im qolmasin o’rta kengda toq.

Tilning ishtiroki orqaga tomon,

Labning ishtiroki oldinga tomon.

(“O” unlisi)

Ey, o’quvchim!

Muammoni yozgin qilmay **muommo**,

Qatnashgan so’zimdanda aytay tasanno.

Muomalani xato yozmang **muomila**,

O’ylanib gapiring qiling muomala.

Bahor, nahor so’zlarini yozsangiz xato,

U holda bo’lmaydi bahongiz a’lo.

Sizga ishonaman xato yozmaysiz,

Ushbu nasihatim yodda tutgaysiz¹.

Quyida undosh tovushlarga doir grammatik topishmoqlardan bir nechtasini keltirib o’tamiz:

Unli hamda undosh tovushlar,

Bir-biridan qanday farqlanar?

Aytilganda bo’lsa to’siqlar,

Hosil bo’lar qaysi tovushlar?

(Undosh tovushlar)

Ustki lab, pastki tish ishtirok etar,

Aytilganda portlab, jaranglab chiqar.

Jarangsiz juftini “p” tovush derlar,

Topishmoq javobin qani kim bilar?

(“B”undoshi)

Ustki lab, pastki tish ishtirok etar,

Labning tirqishidan sirg’alib chiqar,

²² Til va adabiyoti ta’limi – Toshkent, 2018. 7-son. 37-b.

Talaffuzida jaranglab chiqar,
Bilag'on o'quvchi chaqqonlik qilar.

(“V”undoshi)

Aytiladi tilning o'rta qismida,
E'tibor bersangiz, bu tovush bitta,
Kitob – bilim manbayi maqolida,
Ishtirok qilgan-ku, qani u qayda?

(“Y”undoshi)

Shunday tovush bor titrab aytilar,
Bemalol aytadi buni kattalar,
Ammo qiynalishar jajji bolalar,
To'g'ri aytish uchun ko'proq mashq qilar.

(“R” undoshi)

Hosil bo'lar tilning orqa qismida,
Qattiq aytilar talaffuz vaqtida,
U ishtirok qilgan-ku “Xalq” so'zida,
Shunday ekan, xato ayt mang bo'gizda.

(“X” undoshi)

Hosil bo'lish o'rni lab-tish undoshi
Lab-tishda bor yana bitta safdoshi.
U jarangli, lek bu jarangsiz jufti,
Kimga ma'lum bo'ldi jumboq javobi.

(“F” undoshi)

Qattiq aytilar til orqa qismida,
O'rin olgan portlovchilar safida,
Nima asosiy qurol rasm chizganda?
U ishtirok qilgan ayni shu so'zda.

(“Q” undoshi)

Yakka-yu yagona bo'g'iz undoshi,
Esingdan chiqmasa juda ham yaxshi.

Sirg'aluvchi, jarangsiz bu tovushi,
E'tiborni talab qilar imlosi.

(“H” undoshi)²²

O'quvchilarning unli hamda undosh tovushlarning tasnifini doimiy ravishda esda saqlab qolishlarida bu kabi she'riy usulda yaratilgan grammatik topishmoqlarning o'rni beqiyos. Negaki bunda o'quvchi faqatgina javobni topish, tezkorlikni o'rganish bilan cheklanib qolmaydi. Buni o'quvchi qiynalmasdan, tezda yodlab oladi. Shu asosida nutq tovushlarining talaffuz qilinishini bir muncha mashq qilib ko'radi. Tovushlarning talaffuz paytidagi o'xshash hamda farqli jihatlarini bilib oladi. Shuningdek, ta'lim prinsiplarida fanlararo aloqani ta'minlash haqida aytilgan. Mavzuni grammatik topishmoqlar asosida o'rgatish yoki mustahkamlashda til va adabiyot fani o'zaro bog'lanadi va bu o'zining ijobiy samarasini beradi.

“Mantiqiy chalkash zanjir” metodi tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beruvchi ta'lim strategiyasidan iborat. O'qituvchi bu metodni qo'llashda mashg'ulot mavzusini yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri hamda noto'g'ri tartibda, o'ziga xos chalkashlikda bayon etadi. O'quvchilarning vazifasi esa mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni “ulash”dan iborat.

Yuqorida 10-sinf o'zbek tilidarsligida **“O'tilganlarni takrorlash. O'zbek tilining orfoepik va orfografik me'yorlari”** degan mavzu borligi haqida aytib o'tildi. Nazariy ma'lumotlarni mustahkamlashda mana shu metoddan foydalansa bo'ladi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Talaffuz jarayonida so'z tarkibidagi tovushlar turli o'zgarishlarga uchraydi. Bu fonetik tovush tushishi deb ataladi.

2. Tovush o'zgarishlariga tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashinishi kiradi.

3. **Singil** so'ziga so'z yasovchi **-im** qo'shimchasi qo'shilishi natijasida ikkinchi bo'g'indagi **i** unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi.

4. U olmoshiga jo'nalish kelishigi **-ka** qo'shimchasi qo'shilganda so'zda bitta **n** undoshi orttirilib talaffuz qilindi va shunday yoziladi.

5. **Chiroq, yurak** kabi oxiri q, k tovushlari bilan tugagan so'zlarga **-ga** jo'nalish kelishigining qo'shimchasi qo'shilganda g tovushi q, k tovushlariga aylanadi va shunday yoziladi: chiroq + ga = **chiroqqa**, yurak + ga = **yurakka** kabi.

6. **Sana, angla** so'zlar tarkibida tovush almashinishi ro'y bergan, ammo **ata, yasha** so'zlari tarkibida esa hech qanday fonetik o'zgarish sodir bo'lmagan.

O'quvchi mana shu mantiqiy chalkash ma'lumotlarning xatolarini to'g'rilab, zanjirni uzilmas qilib mustahkam ulashi darkor. Ular buni quyidagicha bajarishlari kerak bo'ladi:

“Mustahkam ulangan zanjir”

1. Talaffuz jarayonida so'z tarkibidagi tovushlar turli o'zgarishlarga uchraydi. Bu fonetik tovush o'zgarishlari deb ataladi.

2. Tovush o'zgarishlariga tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashinishi kiradi.

3. **Singil** so'ziga egalik qo'shimchalari qo'shilishi natijasida ikkinchi bo'g'indagi **i** unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi: singil + im = singlim, singil + ingiz = singlingiz kabi.

4. U olmoshiga jo'nalish kelishigi **-ga** qo'shimchasi qo'shilganda so'zda bitta **n** undoshi orttirilib talaffuz qilindi va shunday yoziladi.

5. **Chiroq, yurak** kabi oxiri q, k tovushlari bilan tugagan so'zlarga **-ga** jo'nalish kelishigining qo'shimchasi qo'shilganda g tovushi q, k tovushlariga aylanadi va shunday yoziladi: chiroq + ga = **chiroqqa**, yurak + ga = **yurakka** kabi.

6. **Sana, angla, ata, yasha** so'zlari tarkibida tovush almashinishi ro'y bergan. Son + a = sana, ong + la = angla, ot + a = ata, yosh + a = yasha kabi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, o'quvchilarning fanlarni qay darajada puxta o'zlashtirishi o'qituvchining izlanuvchanligi, muhimi, tajribasiga bog'liq. Yangi darsni avvalgilaridan ham qiziqarliroq tashkil etish va o'quvchilar diqqatini

darsga jalb qilib, ularning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttirish har bir o'qituvchining asosiy maqsadidir. Bu esa ta'lim samaradorligiga erishishning muhim omillaridan biridir. Turli metodlardan, didaktik o'yinlardan foydalanilib o'tilgan dars o'quvchilarning mavzuni puxta o'zlashtirishlariga xizmat qiladi.

3.2. Fonetikaga doir amaliy mashqlar va topshiriqlarni o'rgatish usullari

Har qanday mavzu yuzasidan olingan nazariy bilimlar amaliy mashqlar va topshiriqlar yordamida mustahkamlanadi. Nazariyani puxta o'zlashtirishda mashq va topshiriqlarning ahamiyati katta. Negaki o'quvchi mashq va topshiriqlarni ishlash jarayonida nafaqat bilim, balki ko'nikma va malakalarga ham ega bo'ladi. Mashq va topshiriqlar orqali o'ziga mavhum bo'lgan tushunchalarni bilib oladi. Bu mashq va topshiriqlarni bajartirish jarayonida o'quvchilarni darsga yanada qiziqtirish, ularning chaqqonligini namoyon etish hamda yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarishlarida o'qituvchidan pedagogik mahorat, ijodkorlik talab etiladi.

4-sinf o'zbek tili darsligida h va x tovushlariga oid quyidagicha mashq berilgan. O'qituvchi bu mashqni bajartirishda **“Kim birinchi?”** usulidan foydalansa yaxshi natija beradi. Buni ommaviy tarzda ishlagan ma'qul. Birinchi to'g'ri va aniq ishlab bo'lgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

2-mashq. Nuqtalar o'rniga **x** va **h** tovushlaridan mosini qo'ying va so'zlarni o'qing.

Mi. , sha.ar, osh.ona, a.il, me.mon.ona, alo.ida, dara.t, .ammom, .ojat.xona, a.loq, ru.sat, tu.um.

Birinchi bo'lib tog'ri yozib bo'lgan o'quvchi buni quyidagicha bajaradi va shart g'olibi sanaladi: mix, shahar, oshxona, ahil, mehmonxona, alohida, daraxt, hammom, hojatxona, axloq, ruxsat, tuxum.

Shuningdek, o'qituvchi ijodkorlik mahoratini ishga solgan holda o'quvchilarga ushbu mashqqa qo'shimcha sifatida quyidagicha topshiriq berishi mumkin. Bu topshiriqni ishlatish jarayonida **“To'g'ri va noto'g'ri”** ta'limiy usulidan foydalanish mumkin. Bu tarqatma topshiriq tarzida bo'lib, guruhdagi o'quvchilar birgalikda bajaradilar. Topshiriqni birinchi bo'lib ishlagan guruh rag'bat kartochkasi bilan rag'batlantiriladi.

Topshiriq. Berilgan jadvaldagi so'zlarga diqqat qiling. Ularning imloviy jihatdan to'g'ri yoki noto'g'ri yozilganligini aniqlang. To'g'ri, noto'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlab “+” belgisini qo'yib chiqing.

H va x tovushi ishtirok qilgan so'zlar	To'g'ri	Noto'g'ri
Haykal	+	
Xursand	+	
Baht		+
Xola	+	
Hiyobon		+
Behi	+	
xush kayfiyat	+	
Tahta		+
Hona		+
Himoya	+	
baxor		+
Xato	+	

Ushbu darslikdagi yana bir topshiriqqa e'tibor qaratamiz.

2-topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqni bajaring.

Bug'doy

Bug'doy yurtimizning asosiy boylıklaridan biri. Bug'doy kuzda ekiladi. Uni ekishdan oldin yer shudgor qilinadi. Bug'doy qishi bilan yer ostida unadi.

Boshoqlar to'lishganda hosilni yig'ish boshlanadi. Bug'doy tegirmonga tushguncha dehqonlar katta mehnat qiladilar.

Bug'doy inson uchun kerakli ne'mat. Chunki bug'doy unidan non pishiramiz. Non dasturxonimiz ko'rki.

Matndan **sh** undoshi bo'lgan so'zlarni toping va bu so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Topshiriq shartiga quyidagicha o'zgartirish kiritish mumkin: Matndagi **sh** undoshi ishtirok etgan so'zlar sonini toping va bu so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Ushbu topshiriqni bajartirishda "**Sanamay sakkiz dema**" usulini qo'llash mumkin. Buni qo'llashdan maqsad o'quvchi har qancha tezkor bo'lishni istasa ham, to'g'ri va aniq javob berishga o'rgatiladi. Buni har bir o'quvchi yakka holda bajarishi tavsiya etiladi.

O'quvchilar so'zlarning sonini **9 ta** chiqaradilar va bu so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladilar: ekishdan, shudgor, qishi, boshoqlar, to'lishganda, yig'ish, boshlanadi, tushguncha, pishiramiz.

3-sinf o'zbek tili darsligida **b va p** tovushlarining to'g'ri talaffuziga oid nazariy qoidalar va unga oid amaliy mashqlar berilgan. Bunga qo'shimcha sifatida o'qituvchi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini orttirish, topqirligini tekshirib ko'rish hamda ularning og'zaki nutqini rivojlantirish maqsadida tez aytishlarni topshiriq sifatida berishi mumkin. Bunda **“Tez aytishlar va harflar ketma-ketligi”** ta'limiy o'yinidan foydalanishi mumkin. Buni qo'llash jarayonida katta harflar yozilgan plakat sinf taxtasiga ilib qo'yiladi. O'quvchilar ana sha harflar ketma-ketligini to'g'ri joylashtirib, tez aytishni topishlari kerak bo'ladi. Birinchi bo'lib topa olgan o'quvchi plakatdagi o'sha harflarning pastki qismiga hosil bo'lgan tez aytishni marker bilan yozadi. Birinchi bo'lib topgani uchun u rag'bat kartochkasiga ega bo'ladi. Keyin esa o'sha tez aytishni bir necha marotaba to'xtamasdan, to'g'ri va aniq aytib berishlari kerak bo'ladi. To'g'ri va aniq aytib bera olsa, yana bitta rag'bat kartochkasi beriladi. Qolgan o'quvchilarda ham rag'bat kartochkasini olish imkoniyati bo'ladi. Tez aytishni to'xtamasdan ko'p marotaba to'g'ri va aniq aytib bergan o'quvchilar rag'batlantirilib boriladi.

**BAHDIRO BOURB BILNA BOZGAOR BORBI
TABESH ANBAN OLID**

Harflarni to'g'ri joylashtirish asosida o'quvchilar quyidagi tez aytishni topadilar: **Bahodir Bobur bilan bozorga borib beshta banan oldi.**

Til ta'limida tez aytishlardan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchi tezkorlikka o'rganadi, nutqi ravonlashadi. Bir-biridan ko'p aytishga harakat qilish asosida darsda faol ishtirokchiga aylanadilar. Darsga bo'lgan qiziqishlari bir karra ortadi. Topishmoqlarga javob topish, ularni yodlash hamda tez aytishlar aytish bolalarning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri hisoblanadi.

Bir soatlik dars ishlanma

Sinf: 10

Mavzu: O'zbekiston – jannatmakon o'lka. O'tilganlarni takrorlash . O'zbek tilining orfoepik va orfografik me'yorlari

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarga o'zbek tilining orfoepik va orfografik me'yorlari hamda fonetik o'zgarishlar haqida ma'lumot berish;
- o'quvchilarni ona Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash;
- o'quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash, og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar: axborot bilan ishlash kompetensiyasi, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi.

Darsning turi: mustahkamlovchi va yangi bilim beruvchi

Darsda foydalaniladigan usullar:

Darsning shakli: yakka tartibda va guruhlarda ishlash

Darsning jihozi:

Darsning borishi:

Dars ma'naviyat daqiqasini o'tkazishdan boshlanadi. Bunda bir o'quvchi belgilangan mavzuga oid savollar tayyorlaydi va shu savollar asosida o'rtoqlari bilan savol-javob o'tkazadi. "Intervyu" deb ataluvchi bu usulda o'quvchi shartli ravishda journalist vazifasini o'taydi. Ko'pincha bunday vazifa so'z boyligiko'p, fikri teran, izlanuvchan o'quvchilarga yuklatiladi. Ma'naviy daqiqaga tayyorgarlik o'quvchini o'z ustida ishlash, so'z boyligini o'stirish va jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridan boxabar bo'lishga yo'naltiradi.

– Oliy ta'lim muassalariga o'qishga kirish uchun hujjatlarni qabul qilish qachon boshlanadi?

– Oliy ta'lim muassalariga o'qishga kirish uchun abituriyentlarning hujjatlarni qabul qilish 15-iyundan boshlanadi.

– Prezident maktablariga arizalarni qabul qilish qachon boshlanadi?
– Prezident maktablariga arizalarni qabul qilish Oliy ta’lim muassalariga o’qishga kirish uchun abituriyentlarning hujjatlarni qabul qilish 15-iyundan boshlanadi.

– Qanday sertifikatga ega bo’lgan abituriyentlar til imtihonlarini topshirmaydi, ularga maksimal ball beriladi?

– Ingliz, nemis, fransuz, ispan, arab, fors, hind, urdu, , xitoy, koreys, dari, uyg’ur italyan, yapon tillaridan milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo’lgan abituriyentlar til imtihonlarini topshirmaydi, ularga maksimal ball beriladi.

Uyga vazifa sifatida o’quvchilarga o’tilgan mavzulari bo’yicha bir nechta savollar beriladi.

1. Nutq tovushlarini o’rganuvchi tilshunoslik bo’limiga nima deyiladi?
2. Turkman tili fanida o’rgangan tilshunoslikning orfoepiya va orfografiya bo’limlariga izoh bering.
3. Avval o’tilgan bilimlaringizni esingizga soling. Tovush almashishi, tovush tushishi va tovush orttirilishiga misollar ayting.

O’quvchilar yuqorida berilgan savollarga javob beradilar. Savollarning javobi yangi mavzu bayonida yana ham aniq tushuntiriladi.


Yangi mavzu bayoni:



Berilgan rasimga diqqat qaratiladi. Rasmlar asosida respublikamizda bo'layotgan o'zgarishlar haqida suhbatlashiladi. Mustaqillik yillarida yashab turgan viloyat, shahar, tumandagi o'zgarishlar haqida so'zlab beriladi.

Namuna: Bizning Vatanimiz – O'zbekiston. Yurtimiz yildan yilga rivojlanib bormoqda.

Grammatik mavzu “**Klaster**” usulida tushuntiriladi.



Talaffuz jarayonida so'z tarkibidagi tovushlar turli o'zgarishlarga uchrashi mumkin. bu fonetik tovush o'zgarishlari deb atalib, ularga tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashinishi hodisalari kiradi.

Masalan:

singil + im = singlim (2-bo'g'indagi i unlisi tushgan)

o'rtoq + im = o'rtog'im (q undoshi g' undoshiga almashyapti)

bilak + ga = bilakka (g tovushi k ga almashyapti)

chiroq + ga = chiroqqa (g tovushi q ga almashyapti)

u + ga = unga (n undoshi orttirilyapti)

O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

O'tilgan mavzu mashqlar va test savollari yordamida mustahkamlanadi.

1-mashq. Berilgan so'zlarga **-ga, -ka, -qa** qo'shimchalaridan mosini qo'yib yozing. Qanday tovush o'zgarishi yuz berayotganini ayting.

Bog', chiroq, etak, chek, o'rtoq, barg, qirq, soliq, kiyik, chelak, kurak, quloq.

O'quvchilar buni quyidagicha bajaradilar:

Bog'ga, chiroqqa, etakka, chekka, o'rtoqqa, bargga, soliqqa, kiyikka, chelakka, kurakka, quloqqa.

2-mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'yib yozing. Qanday tovush o'zgarishi yuz berayotganini ayting.

1. U otgan koptok chiroq... (qa, ga) tegdi. 2. Sayohatchilar qaynar buloq... (qa, ga) borishdi. 3. Sardorning dadasi bilak... (-ga, -ka) taqiladigan soat olib berdi. 4. Sardor juda xursan... (d, t) bo'ldi. 5. U o'rto...lariga (q, g') soatini ko'rsatdi.

Mashqlar bajarilgach, o'quvchilar uch yoki to'rt guruhga bo'linadi. Har bir guruhga test savollari tarqatiladi. O'quvchilarg testni ishlash uchun to'rt-besh daqiqqa vaqt beriladi. Shu vaqt oralig'ida savollarga to'g'ri javoblarni topishlari kerak bo'ladi.

Test

1. Bilagim, qishlog'i so'zlari tarkibida qanday tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?

A. Tovush orttirilishi

B. Tovush tushishi

S. Tovush almashinishi

D. Tovush orttirilishi va almashinishi

2. **Unday, shunday, unga, bundan, bundan** so'zlari tarkibida qanday tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?

A. Tovush orttirilishi

B. Tovush tushishi

S. Tovush almashinishi

D. Tovush orttirilishi va almashinishi

3. quyidagilardan qaysi qatordagi so'zlarda tovush tushish hodisasi ro'y bergan?

A. Qorni, sana, o'rtog'i

B. Shahri, bog'ga, ko'chaga

S. ko'ngli, o'g'li, unga

D. burni, ko'ngli, shahri

4. Ko'rkam qizlar, bobur, botir yigitlar,

Vatan faxri, millat yoqqan chirog'i,

Yangra, diyor madhi jahon elida,

Porla, g'olib Vatanimning bayrog'i!

Sa'dulla Hakim qalamiga mansub ushbu bandda jami nechta so'z fonetik o'zgarishga uchragan?

A. 3 ta

B. 1 ta

S. 2 ta

D. Hech qaysi so'z fonetik o'zgarishga uchramagan

5. **Sanab sanog'iga yeta olmadi.** Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida qaysi fonetik o'zgarishi sodir bo'lgan?

A. Tovush orttirilishi va almashinishi

B. Tovush tushishi va orttirilishi

S. Tovush almashinishi

D. Tovush orttirilishi

Test ishlab bo'lingach, guruhlar ishlagan javoblarini bir-biri bilan almashadilar. O'qituvchi to'g'ri javoblarni aytadi. Guruhdagilar esa ishlagan javoblarni tekshiradilar. Hammasini to'g'ri ishlagan guruh yoki guruhlar g'olib bo'ladi.

O'quvchilarni baholash: Darsda faol qatnashgan guruh rag'batlantiriladi, o'quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa: Sa'dulla Hakimning "Vatan faxri" she'rini yod oling. Undagi fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing va qaysi tovush o'zgarishlari sodir bo'lganligini izohlang.

XULOSA

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonundan keyin respublikamizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish kun tartibiga qo’yildi. Bu islohot ona tili ta’limi oldiga ham muhim vazifalar qo’ydi. Birinchi galda tilning har bir sathini uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida qaysi me’yorda, ya’ni qancha o’qitish kerakligi masalasi hal etildi. Buni fonetika sathi misolida ham yaqqol ko’rish mumkin. Jumladan, o’zbek (davlat) tili darslarida ham fonetikani o’qitish ahamiyati va zaruratijuda ham katta. Negaki tilshunoslik bo’limlarini puxta o’zlashtirishda quyi pog’onadan yuqori pog’onaga tomon o’rganib va o’zlashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Fonetikani o’qitish quyidagilarda namoyon bo’ladi:

1. O’quvchilar og’zaki va yozma nutqining shakllanganlik darajasi o’z fikrini so’z va gaplar vositasida to’g’ri qura bilish, o’zbek tilining boy imkoniyatlaridan to’laqonli foydalanish, tovushlarni to’g’ri talaffuz etish, ularni yozuvda to’g’ri ifodalay olish, tovush, so’z va gap ohangiga rioya qilish kabilar bilan o’lchanadi. Bu omillarning ko’pchiligi esa tilning fonetika sathi orqali o’quvchilar ongiga singdiriladi.

2. Til ta’limini o’qitishdan kelib chiqadigan bosh maqsad o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini shakllantirish ekan, til sathlarini o’qitishni o’quvchilar nutqini o’stirishga xizmat qildirish asosiy vazifalardan sanaladi. Fonetikada tilning tovush tizimi o’rganilsa-da, o’quvchilarning so’z boyligini oshirish uchun katta imkoniyatlar bor. Fonetika mavzulari doirasida bajariladigan turli amaliy-ijodiy ishlar o’quvchilarning so’zga bo’lgan ehtiyojini qondirish uchun imkon yaratadi.

3. Fonetika bo’limida asosan nutq tovushlari, ularning paydo bo’lishida ishtirok etuvchi nutq a’zolarining xizmati, hosil bo’lgan o’rni va usuli, talaffuz va imlo, bo’g’in va bo’g’in ko’chirish, so’z urg’usi kabi mavzular ustida bahs yuritilsa-da, uning so’z boyligini oshirish, mustaqil

va ijodiy fikrlash, fikrni ravon, go‘zal va ta’sirchan ifodalash imkoniyatlarini anglash va rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, talaffuz va imlo masalalariga e’tiborni qaratish zarur.

4. Fonetikani o‘rganish jarayonida adabiy til va shevalarning lug‘atni boyituvchi xususiyatlariga e’tibor berish ham muhimdir. Shunda adabiy til me’yorlariga rioya qilishning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati to‘liq anglanadi. Ayni paytda fonetikani puxta va ongli o‘rganish, tilning boshqa bo‘limlarini ham yaxshi o‘zlashtirish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

5. Umumta’lim maktablarida tovushlar va ularning imlosi o‘rganilayotganda talaffuzi va yozilishi farq qiladigan so‘zlarga katta ahamiyat beriladi. Masalan **b** undoshi *maktab, kitob, kabob, sabab* singari so‘zlarning oxirgi bo‘g‘inida **p** tarzida talaffuz etilishi, biroq imlo qoidasiga ko‘ra **b** yozilishini o‘zlashtirishlari kerak bo‘ladi yoki bir qator jarangli undoshlarning so‘z oxirida jarangsizlanishiga e’tibor berish kerak bo‘ladi. Bu xususida yuqorida ham aytib o‘tildi. Ta’lim turkman tilida olib boriladigan maktablarda ta’lim olayotgan aksariyat o‘quvchilar mana shu so‘zlarni yozishda xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bularni yozishda tovushlarning talaffuziga e’tibor beradilar.

6. Asos va qo‘shimchalar talaffuzi va imlosini o‘rganish umumta’lim maktablarida eng muhim masalalar sirasiga kiradi. Chunki so‘zlarning asosiga qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida so‘z asosiga yoki qo‘shimchada yoki ularning har ikkida fonetik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu hol so‘zlarni to‘g‘ri yozishda o‘quvchilarga qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tili darsliklarida tovush o‘zgarishlariga doir mavzular tizimli shaklda berilgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchining fonetika bo‘yicha to‘plagan bilim, ko‘nikma va malakalari tilshunoslikning barcha bo‘limlarini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Negaki til birliklarini shakllantiruvchi moddiy qobiq – bu nutq tovushlaridir. Shuning uchun

tilshunoslikning barcha bo'limlari qatori fonetik bilimlar va tahlil namunlarini o'zlashtirish dardkor. Bu nutqni o'stirish, uni ifodali va ravon bayon etish uchun ham ayni muddaodir. O'quvchilarning bular kabi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarida o'qituvchining bilim darajasi, ijodkorlik qobiliyati, pedagogik mahorati zamon talabiga javob berishi joiz.

Har bir o'qituvchi dars jarayonida ta'lim metodlari, pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanishi kerak. Negaki bular o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga qiziqtirish, fikrlashni o'rgatishga xizmat qiluvchi jarayondir. Darhaqiqat, har bir dars, har bir mavzuni o'qitishda unga mos keladigan interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara bermoqda. Chunki bunday usullar o'quvchilarning bilimni rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kun o'quvchisi darsda faol subyektga aylanishi, shuningdek, o'qituvchi shahsi ham zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi shart. Bu zamon va davr talabidir. Shunday ekan, o'qituvchi darsiga katta mas'uliyat bilan yondashishi talab etiladi.

Bu boradagi fikr-mulohazalarimizni umumlashtirish uchun quyida "SWOT" tahlilidan foydalanamiz:

1. Masalaning kuchli tomoni.

Mustaqil davlatimizda o'zbek tilining ijtimoiy mavqei tobora ortib borayotgan bugungi kunda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish o'quvchilarning davlat tilida erkin fikrlashi, o'z fikrlarini yozma va og'zaki ravishda to'g'ri ifodalash ko'nikmalarini egallashi, o'zbek xalqining milliy, madaniy qadriyatlarini, muomala madaniyati hamda boy adabiy-badiiy merosi bilan tanishishning ko'zda tutilishi masalaning davlat ahamiyatiga ega ekanini anglatadi.

2. Masalaning kuchsiz tomoni. Qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman tillarida olib boriladigan maktab o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalar

yaratish ishlari nazardan chetda qolib ketmoqda. Shuningdek, metodika ilmda fonetikani o'qitish yo'riqlari ishlab chiqilmagan.

3. Imkoniyat

Hozirgi kunda yurtimizda zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan oliy ta'lim bitiruvchilari ya'ni tilshunos mutaxassis kadrlar qanchadan qancha. Shunday ekan, imkoniyat o'z qo'limizda. Dars samaradorligiga erishish uchun ta'limda jarayonida uchrab turgan muammolarni, to'siqlarni bartataf qilishga astoydil kirish maqsadga muvofiqdir.

4. Xavf-xatarlar, kamchiliklar

Ta'lim qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman tilida olib boriladigan maktablarning davlat tili ta'limida turkiy tillarning qardoshligi hisobga olingan dastur va darsliklardan foydalanish kerakligi bir qancha tilshunos o'qituvchilar tomonidan taklif va tavsiya qilindi. Ammo bu fikrlar o'z tasdig'ini topmayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islom Karimov. “O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lida”. –T.: “O‘zbekiston”, 1994.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod 2. O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq. 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq. 1997.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. –T: Ma’naviyat, 2008.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonun. – 1989.
- 6 O‘zbek tilidan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
8. S. Otamirzayeva, M. Yusupova O‘zbek tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2004.
9. SH. Yo‘ldosheva, U. Masharipova, D. Xudoyberdieva . Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini lisoniy tahlilga o‘rgatish (metodik qo‘llanma) Toshkent – 2012
10. Rafiyev A., Muhammadjanova G., Toshpo‘latov T. Umumtalim maktablarining 2-sinfi uchun O‘zbek tili darslik. – T.: O‘zbekiston, 2016.
11. O‘zbek tili: Umumta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik Rafiyev A., Muhammadjanova G., Toshpo‘latov T. – T.: O‘zbekiston, 2018
12. O‘zbek tili: Umumta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik Rafiyev A., Muhammadjanova G., Ziyamuhammedova G. – T.: O‘zbekiston, 2016.
13. O‘zbek tili: Umumta’lim maktablarining 4-,5-sinflari uchun darslik. Rafiyev A., Muhammadjonova G. – “O‘qituvchi”.: Toshkent, 2017

14. O'zbek tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Muxitdinova X. S., Avlakulov Y. I., Nuriddinova D. A. – "O'qituvchi", Toshkent – 2017.
15. O'zbek tili: Umumta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Muxitdinova X. – "O'qituvchi", Toshkent – 2014.
16. O'zbek tili: Umumta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Muxitdinova X. S., Muhammadjonova G. Z., Talipova F.S., Eshbayeva R. B. – "Davr nashriyoti", Toshkent – 2017.
17. Ene dili: Umumy orta bilim berýän mekteplerininñ 1-synpy üçin derslik. Abdullaýewa G., Welbegow G., Halliýew G. – "Özbeqistan", Daşkent – 2017.
18. Okuw : Umumy orta bilim berýän mekteplerininñ 4-synpu üçin derslik. – "Özbeqistan", Daşkent – 2017.
19. Türkmen dili: Umumy orta bilim berýän mekteplerininñ 10-synpy üçin derslik. Nazarowa G., ArazklyçewaH. – Çolpan adyndaky neşirýat, Daşkent – 2017.
20. R. Klyçew , M. Berdiýew. Türkmen dili 11-nji synp üçin derslik. Daşkent – 2018.
21. Qoraqalpoq tili: Umumta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. G. X. Jumasheva. – No'kis, Bilim – 2013.
22. Til va adabiyoti ta'limi – Toshkent, 2018. 7-son.
23. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
24. Hamroyev G'. Ona tili darslarida fonetika ustida ishlash. Til va adabiyot ta'limi. Journ., 2010. №9.
25. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. –T, O'qituvchi, 1992.
27. G'ulomov Y. va boshq. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1975.

